

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**

**QO‘LDASHEV AKRAMJON MAXMUDOVICH**

**XALQLAR BUYUK KO‘CHISHINING GERMAN TILLARI  
SHAKLLANISHIDAGI ROLI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent– 2023**

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc) по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of (DSc) on philological sciences**

**Qo‘ldashev Akramjon Mahmudovich**

Xalqlar buyuk ko‘chishining german tillari shakllanishidagi roli..... 3

**Кулдашев Акрамжон Махмудович**

Роль Великого Переселения народов на формирование германских языков..... 32

**Kuldashev Akramjon Makhmudovich**

The Role of the Great Migration of Peoples to the Formation of Germanic Languages... 58

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 63

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**

**QO‘LDASHEV AKRAMJON MAXMUDOVICH**

**XALQLAR BUYUK KO‘CHISHINING GERMAN TILLARI  
SHAKLLANISHIDAGI ROLI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent– 2023**

**Fan doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2017.1.DSc/Fil42 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasining [www.uzswlu.uz](http://www.uzswlu.uz) hamda "ZiyoNet" axborot ta'lim portalining [www.ziyounet.uz](http://www.ziyounet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

**Rasmiy opponentlar:**

**Xayrullayev Xurshidjon Zayniyevich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Djumabayeva Jamila Sharipovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01 raqamli Ilmiy kengashining 2023-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 21-A uy. Tel.: (99871) 230-12-91); faks (99871) 230-12-92; e-mail: [uzswlu\\_info@mail.ru](mailto:uzswlu_info@mail.ru)).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100138, Toshkent shahar, Uchtepa tumani, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 21-A uy. Tel.: (99871) 230-12-91); faks (99871) 230-12-92).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2023-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**G. X. Bakiyeva**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash raisi, f.f.d., professor

**X. B. Samigova**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash Ilmiy kotibi, f.f.d.,  
dotsent

**J.A. Yakubov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, f.f.d., professor

## **KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** XX asr oxiri va XXI asr boshlarida dunyo tilshunosligining barcha sohalarida qo‘lga kiritilgan ulkan yutuqlar, dunyo siyosiy xaritasida yuzaga kelgan tub o‘zgarishlar xalqlar tarixi, xalqlar tillari tarixiga aloqador ko‘p masalalar bo‘yicha aniqlangan faktik materiallar, erishilgan yutuqlar, chiqarilgan xulosalarga asoslanib fanda mavjud bo‘lgan ko‘pgina hukmlarning to‘g‘riligi masalasini qayta ko‘rib chiqish zaruriyatini belgiladi.

Bugungi kunda jahon tilshunosligida tarixiy haqiqatni yuzaga chiqarish til tarixi fanining pirovard maqsadi ekanligi g‘oyasi keyingi paytlarda Yevroosiyo va Amerika qit‘asida chop etilgan turli darajadagi nashrlar va chiqishlarda o‘z in‘ikosini topmoqda. Shu nuqtayi nazardan yetakchi ta‘lim muassasalari ilmiy doiralarida dunyoda eng keng tarqalgan hind-yevropa tillar oilasiga mansub german va oltoy tillari oilasiga mansub turkiy tillari tarixining ayrim davrlarini qayta ko‘rib chiqish, o‘sha davrlarga tegishli bo‘lgan turli "oq dog‘"larning to‘g‘ri izohini berish, german tillari tarixining dastlabki bosqichlarida turkiy xalqlar bilan turli xarakter va davomiylikdagi o‘zaro aloqaga kirishganligi va bu til kontaktlarining har ikkala til oilasi va guruhiga mansub tillarning fonetik, grammatik strukturasi va lug‘at tarkibiga ta’sir qilishi natijasida ularda katta o‘zgarishlarning sodir bo‘lganligi XX asr tarixchilari tomonidan kashf etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek tilshunosligida Yevropa tillari va, xususan, german tillari tarixida sodir bo‘lgan, ammo hanuzgacha o‘z yechimini topmagan talaygina muammo va masalalarga yechim topish imkonini beruvchi tadqiqotlar olib borish markaziy o‘rin egallamoqda. Zero, “fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish, mavjud ilmiy maktablarni saqlab qolish va yangilarini yaratish, ularning kadrlar salohiyatini mustahkamlash, bunda iqtidorli yoshlarning ilm-fanga keng jalb etilishini rag‘batlantirish” ga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, german tillari tarixining dastlabki davrlarini o‘rganib chiqish va bu tillarda keyinchalik sodir bo‘lgan ko‘plab o‘zgarishlarning sababini ochib berish orqali tillar tarixiy taraqqiyotining asosiy tamoyillarini ishlab chiqish va shu asosda hind-yevropa tillar oilasiga mansub va geografik jihatdan german xalqlari bilan bir hududda yoki qo‘shni hududlarda yashagan roman, slavyan, kelt tillari tarixiy taraqqiyotida kuzatilgan va hozirgacha qorong‘u bo‘lib kelgan ayrim jihatlari, Xalqlar buyuk ko‘chishining german tillarining shakllanishi va rivojlanishiga ko‘rsatgan ta’sirini izchil ochib berishga oid tadqiqotlarni olib borish dolzarbligini belgilaydi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni; 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi haqida”; 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi; 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini

yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari; 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish haqida”gi Qarori; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 8-avgustdagi “Ta‘lim muassasalarida chet tilini o‘qitishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari haqida”gi; 2018-yil 15-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha tadbirlar to‘g‘risida”; 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-son, O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”; 2020-yil 20-oktabrdagi PQ-1395-son “Buyuk shoir va mutaffakir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrda 989-son “Davlat tilini rivojlantirish departamenti to‘g‘risida nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarori, shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi.**<sup>1</sup> German tillari va shu jumladan ingliz tili hamda Oltoy tillari, shu jumladan, turkiy tillar tarixini o‘rganish masalasi, ularning jahon sivilizatsiyasida tutgan o‘rni va tillararo kontaktlar masalasi, Xalqlar buyuk ko‘chishi jarayonining turli jihatlarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish dunyoning yetakchi ilm maskanlari, yirik ilmiy markazlar, oliy ta‘lim muassasalarida, jumladan, Oxford University (Buyuk Britaniya); Cambridge University (Buyuk Britaniya); Moskva Davlat universiteti (Rossiya Federatsiyasi); Moskva davlat lingvistik universiteti (Rossiya Federatsiyasi); Sankt-Peterburg davlat universiteti (Rossiya Federatsiyasi), Harvard University (AQSh); Massachusetts Institute of Technology (AQSh); University of Bonn (Germaniya); University of Tehran (Eron islom respublikasi); Kiyev milliy universiteti (Ukraina); Anqara universiteti (Turkiya); Baki Davlat Universiteti (Ozarbayjon); Qozoq milliy universiteti (Qozog‘iston); O‘zbekiston Respublikasi FA Tarix instituti; O‘zbekiston Respublikasi FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklor instituti; Andijon davlat universitetida ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Jahon tilshunosligida Xalqlar buyuk ko‘chishi hodisasining turli jihatlari yuzasidan quyidagi yo‘nalishlarda ilmiy natijalar olingan: Xalqlar buyuk ko‘chishining tarixiy-geografik jihatlari, ijtimoiy voqelik, yuzaga kelish sabablari va harakatlantiruvchi kuchlari xususidagi ma‘lumotlar umumlashtirilgan. (Berlin,

<sup>1</sup> Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi: <http://dic.akademik.ru/dic.nsf/>; <http://diction.chat.ru>; <http://home.comcast.net/modern52/oeme.dictionaries.html>; [http://www.gargetown.edu/faculty/ballc/oe/oe\\_texts.html](http://www.gargetown.edu/faculty/ballc/oe/oe_texts.html); <http://lonestar.texas.net/ajebbo/learners/origins/html>.

Fanlar akademiyasi Tarix muzeyi) (Germaniya); Budapesht, Korvina arxivi (Vengriya); Kyoln “Römisch-Germanisches Museum” (Germaniya); Krakov “Muzeum Archeologiczne” (Polsha); Britaniya muzeyi (Buyuk Britaniya); Rome, Deutsches Archäologisches Institut (Germaniya); Xalqlar buyuk ko‘chishiga jalb etilgan qabilalar, ularning tili, xususiyatlari masalasi tadqiq qilishgan (Rossiya Fanlar Akademiyasi Tilshunoslik instituti; Sankt-Peterburg universiteti (Rossiya); Uppsala University Library (Shvesiya); Madrid, Museo Arqueologico Nacional (Ispaniya).

Xalqlar buyuk ko‘chishda ishtirok etgan turkiy tillar tarixi masalasi qisman tadqiq qilingan (Rossiya FA Sharqshunoslik instituti); Baku davlat universiteti (Ozarbayjon); Almati davlat universiteti (Qozog‘iston). Qabila tillarining xalq, elat va millat tillariga rivojlanishida kuzatilgan turli lingvistik jarayonlar tahlil qilingan. (Bonn universiteti (Germaniya); Anqara universiteti (Turkiya). Xalqlar buyuk ko‘chishiga jalb etilgan qabila, elat va xalqlarning ko‘chishidan keyingi taqdiri masalalari bilan Bern universiteti olimlari (Shvetsariya); Leypsig universiteti (Germaniya) tarixchilari, Sorbonna universiteti (Frantsiya) olimlari izlanish olib bordilar.

Dunyo diaxron tilshunosligida Xalqlar buyuk ko‘chishi hodisasining german tillarining shakllanishi va rivojlanishiga aloqador masala va muammolarga ma’lum darajada e’tibor qaratilmoqda. Xalqlar buyuk ko‘chishi sodir bo‘lishining iqtisodiy, siyosiy shart-sharoitlari; qadimgi german qabilalarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot darajasi, qadimgi german qabilalarining Rim imperiyasiga munosabati, Xalqlar buyuk ko‘chishining asosiy sabab va bosqichlari, bu hodisaning natijalari, bu jarayondan avvalgi Yevropaning siyosiy xaritasi, Xalqlar buyuk ko‘chishidan keyingi Yevropaning siyosiy xaritasi, bu hodisaga jalb etilgan qabilalar va ular tillarining taqdiri masalalarini o‘rganish hali dolzarbligini yo‘qotganicha yo‘q.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Xalqlar buyuk ko‘chishi jarayoni jahon tarixida ancha chuqur o‘rganilgan voqea hisoblanadi. Xalqlar buyuk ko‘chishining boshlanish va tugash nuqtalari davriy va jo‘g‘rofiy jihatdan juda ko‘p olimlar: tarixchi, geograf va boshqalar tomonidan ko‘p o‘rganilgan. Shunga qaramasdan, bu voqeani o‘rganish ko‘proq Yevropa olimlari tomonidan amalga oshirilgani uchun, tabiiyki, bu jarayonga berilgan baho har safar bir tomonlama bo‘lib qolgan.

Yevropaliklar madaniyatlashgan, sivilizatsiyalashgan xalqlar - yovvoyi (varvar) xalqlarning qurboniga aylangan va ular ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni bir necha yuz yil orqaga surganlar. Mana shu Xalqlar buyuk ko‘chishiga beriladigan an’anaviy, yevropacha baho bo‘lib, xitoy, yapon va boshqa olim va mutaxassislar, yevropalik olimlarga ergashgan holda, bu fikrga yuz foiz qo‘shilar edilar. Bu Xalqlar buyuk ko‘chishining ishtirokchilari qaysi tilda so‘zlashgan? degan savolga hech kim javob berishga urinmasdi, chunki olinayotgan javob g‘arb mafkurasiga to‘g‘ri kelmas va ular bu kabi javoblardan qochish maqsadida “bu haqda yozma yodgorliklar saqlanib qolmagan” deb qayd etishni o‘zlariga hunar qilib olgan edilar. Faqat XX asr oxiri va XXI asr boshlarida Yevropa, Rossiya, Turkiya va Markaziy Osiyo olimlari Xalqlar buyuk ko‘chishining yurgizuvchi, harakatga

keltiruvchi asosiy kuch bu xunlar bo‘lib, ular turkiy tillarda so‘zlashgan xalqlar ekanligini tushunib yeta bildilar va uni o‘z tarixining bir qismi, aniqrog‘i, eng muhim qismi ekanligini anglaganliklari uchun o‘z nuqtayi nazar va e‘tiborini o‘zgartirdilar.

XIX asrda bu jarayonni ko‘proq nemis olimlari F. Dahn, Ed. Wietersheim, R. Pallman, G. Kaufmann, K.D. Schmidt, H.J. Diesner va boshqalardan o‘rgangan<sup>2</sup>.

XX asrga kelib bu jarayonni o‘rganish masalasiga boshqa xalqlar vakillari, shu jumladan, fransuz, italyan va rus olimlaridan S.P. Kondratyev, J. Ephesini Zosimi, A.D. Dmitriyev, A.V. Mishulin; A.M. Remennikov, Z.V. Udaltsova, Fryustel de Kulanj, A. Alföldi, F. Altheim, L. Halphen, Th. Hodgkin, R. Latouche, B. Rappoport, R. de Gonzaque, E. Wietersheim, P. Lemerie, V. Ensslin, A. Marsellin va boshqalar qo‘shildilar.<sup>3</sup>

O‘zbek tilshunoslaridan ayrimlari ham bu yo‘nalishda izlanish olib borgan. N. Raxmon, G‘. Abdurahmonov, A. Rustamov, D. Aytmuratov, D. Muxtarov, U. Sanakulov, U. Tursunov, B. O‘rinboyev, A. Aliyev, X. Ne‘matov kabi tilshunos olimlarning bu soha rivojidadagi xizmatlari kattadir.<sup>4</sup>

III-X asrlarda mavjud bo‘lgan german tillari fonetik, grammatik strukturalari, va lug‘at boyligida ro‘y bergan o‘zgarishlar, yangi fonemalarning paydo bo‘lishi, eski fonemalarda sodir bo‘lgan pozitsion va kombinatorik, miqdoriy va sifat o‘zgarishlar, so‘zning morfologik strukturasi, paradigmasi va tillar sintaktik strukturalarida ro‘y bergan siljishlar xizmat qildi. German tillaridagi har bir til birligini Xalqlar buyuk ko‘chishiga aloqadorlik nuqtayi nazardan tahlil qildikki, bu narsa miqdor yoki boshqa kriteriyalar tomonidan sinovdan o‘tkazildi, ya‘ni izchil o‘rganildi.

Xalqlar buyuk ko‘chishi vatanimiz va jahon tarixchilari A.R. Korsunskiy, R. Gyunter, L.N. Gumilev; M. Adji; O. Yeger; G.M. Bongard-Levin,

---

<sup>2</sup> Dahn F. Die Könige der Germanen, Bd. 1-9, 1986–1990.; Wietersheim Ed. Geschichte der Völkerwanderung, Bd. I-II, 1880 – 81.; Pallman P.R. Die Geschichte der Völkerwanderung von der Gothenbewehrung bis zum Alerichs, 1963; Kaufmann C. Deutsche Geschichte bis auf Karl den Grossen. – 1980-1981; Schmidt K.D. Die Bekehrung der Ostgermanen zum Christentum, Göttingen, 1939; Diesner H.J. The Great Migration, Leipzig, 1978. 256 p.

<sup>3</sup> Кондратьев В.Г. Грамматический строй языка памятников древнетюркской письменности. VIII – XII вв. – Л. Изд. ЛГУ, 1981, стр.192.; Euphemi Zosimi. Historia nova, et. L. Mendelsohn. Leipzig, 1989; Дмитриев А.Д. Восстание вестготов на Дунае. ВДИ, 1950, № 1.; Мишулин А.В. Материалы к истории древних славян. Вестник Древней истории, 1941. № 1.; Ременников А.М. Борьба племен Сев. Причерноморья с Римом в III в н.э. М., 1954; Удальцова З.В. Италия и Византия в VI в. н.э., М., 1959; Куланж Ф. де. История общественного строя древней Франции. Т.2, Германское вторжения и конец империи. СПб., 1994; Alföldi A. The invasions of peoples. САН, v.12. Cambridge, 1989; Altheim P. Attila und die Hunnen. Baden-Baden, 1951, 230 p.; Halphen I les Barbares des grandes invasions au conquetes turques du XI-e siècle, 2-el., p. 1930; Hodgkin Th. Italy and her invaders, Vol. 1-4, Oxford, 1980-1985; Latouche R. Les grandes invasions et la crise de l’Occident aux V-e siècle. p. 1996; Rapoport B. Die einfalle der Goten in das Romische Reich bis auf Constantin. Lpz, 1999; Gonzaque de, R. Le monds Barbare et sa fusion avec le mond antique, Les Germains. P., 1953; Wietersheim Ed. Geschichte der Völkerwanderung, Bd. 1-2, 1880 – 81; Lemerie P. Invasions et migrations dans le Balkans depuis le fin de l’époque romaine jusqu’ale VII e sieqle. R.H., № 211 p, 1954; Ensslin V. Einbruch in die Antike welt; Völkerwanderung.- В кн. Historia mundi, Bd. 5, Bern 1936; Марцелин Аммиан. История. кн. 31, пер. с. лат. яз., СПб., 1908.

<sup>4</sup> Nasimxon Raxmonov. Turk xoqonligi. Toshkent. Fan, 1993, 142; Abdurahmonov G‘, Rustamov A. Qadimgi turk tili, T. 1982, 348 b.; Айтмуратов Д. Тюркские этнонимы, Нукус, Изд. Каракалпакстан, 1986, стр. 234.; D.Muxtarov, U. Sanaqulov “O‘zbek adabiy tili tarixi”. Toshkent, O‘qituvchi, 1995, 160 b.; Tursunov U., B.O‘rinboyev, A. Aliyev. “O‘zbek adabiy tili tarixi” Toshkent, O‘qituvchi. 1995, 262 b.; Ne‘matov X. O‘zbek tili tarixiy fonetikasi. Toshkent, Fan, 1992-yil, 130 b.

E.A.Grantovskiy; E.Gibbon; L.Belyayev; S.Veber; M.Kin; N.A.Osokin; D.V.Gromov, A.A.Bichkovlar tomonidan juda keng o'rganilgan.<sup>5</sup>

Xalqlar buyuk ko'chishida qatnashgan xalqlar tarkibi haqida L.N.Gumilev, O.Yu.Terrilarning ishlarida gapirilgan.<sup>6</sup>

Xalqlar buyuk ko'chishining geografik tarqalishi masalasi M.T. Dyachok; M.Svodesh; V.P.Kaligin, A.A.Korolev; G.A.Klimov; M.T.D'yachoklarning ishlarda tahlil qilingan.<sup>7</sup>

Xalqlar buyuk ko'chishining paydo bo'lishi sabablari G.A.Klimov; G.Gamkrelidze, T.V Ivanov; A. Keydan; N.A.Ganina; A.N Solovyeva; V.P.Budanova kabi olimlarning asarlarida tahlil qilingan.<sup>8</sup>

Xalqlar buyuk ko'chishidagi asosiy voqea-hodisalar V.P.Budanova, A.A.Gorskiy, N.Ye.Yermolova; V.P.Budanova ishlarida chuqur tahlil qilingan.<sup>9</sup>

Xalqlar buyuk ko'chishining asosiy oqibatlariga Ye.S.Golubsova; Yu.K.Kolosovskaya; Ammian Marselin; O.Iordan; M.B.Shukin; V.Xervi; Ye.S.Galkina; V.M.Jirmunskiyning asarlarida alohida e'tibor berilgan.<sup>10</sup>

---

<sup>5</sup> Корсунский А.Р., Гюнтер Р. Упадок и гибель Западной Римской империи и возникновение германских королевств (до середины VI в.). М., 1984; Гумилев Л.Н. Тысячелетие вокруг Каспия, М., 2007. 448 с.; Аджиджи М., Тюрки и мир. Сокровенная история. М. Изд. АСТ, 2004. 650 с.; Егер О. Всемирная история. В 4-т. Репринт, М. 2000; Бонгард-Левин Г. М. Грантовский Э.А От Скифии до Индии. Древние арии. Мифы и история. СПб. 2001; Гиббон Э. История упадка и разрушения Римской империи. 4, I-VII, Новосибирск, 1997-2000. 1480 стр.; Беляев Л. Христианские древности. СПб, 2000, 440 с.; Вебер С. Руническое искусство. СПб., 2002; Кин М. Рыцарство. М.: Н., 2002; Осокин Н.А. История средних веков. М.: Харвест, 2003. 672 с.; Громов Д.В, Бычков А.А Славянская руническая письменность. Факты и домысли. М.: София. 2005. 380с.

<sup>6</sup> Гумилев Л.Н. Тысячелетие вокруг Каспия. М., 2007; Терри О.Ю. Рассказы о времени Меровингов. СПб, 1994.

<sup>7</sup> Дьячок М.Т. Глоттохронология пятьдесят лет спустя. Сибирский лингвистический семинар. Новосибирск. 2002. №1. С. 6-12; Сводеш М. Лексикографическое датирование доисторических этнических контактов. //Новое в лингвистике Вып. 1, М., 1960, с. 23-52; Калыгин В.П., Королев А.А. Введение в Кельтскую филологию. М., 1989. С. 205; Климов Г.А. Вопросы методики сравнительно-исторического изучения индоевропейских языков. Л., 1971. С. 125; Дьячок М.Т. Глоттохронология тюркских языков. (предварительный анализ) // Наука. Университет, Новосибирск 2001, С. 15-16.

<sup>8</sup> Климов Г.А. Вопросы методики сравнительно-исторического изучения индоевропейских языков. Л., 1971. 320 с.; Гамкредидзе Т.В. Иванов Вяч. Вс. Индоевропейский язык и индоевропейцы. Реконструкция и историко-типологический анализ праязыка и протокультуры. В 2х томах. – Тбилиси: Изд. Тбилисского университета, 1985. -1328 с.; Кейдан А. Калькированный архаизм готского языка – Индоевропейское языкознание и классическая филология – X. Материалы чтений, посвященных памяти профессора И.М.Тронского. - СПб, 2006, с. 146-155.; Ганина Н.А. Надпись на шлеме из Негау: Проблемы языковой и культурной интерпретации. Индоевропейское языкознание и классическая филология. – IX. Материалы чтений, посвященных памяти профессора И.М. Тронского – СПб, 2005, стр. 53 – 62; Соловьева Л.Н., Арсеньева М.Г. и др. Введение в германскую филологию. М.: ВШ, 1980, 320 с.; Буданова В.П. Варварский мир эпохи Великого переселения народов. М. 2000. 310 с.

<sup>9</sup> Буданова В.П., Горский А.А., Ермолова Н.Е. Великое переселение народов. Этнополитические и социальные аспекты, М. 1999. 320 с.; Буданова В.П. Варварский мир эпохи Великого переселения народов. М. 2000. 310 с.

<sup>10</sup> Голубцова Е.С. Община, племя, народность в античную эпоху. М., 1998. 240 с.; Древности эпохи великого переселения народов. (V-VIII вв). М, 1982. 412.С.; Колосовская Ю.К. Рим и мир племен на Дунае. I-IV вв. 42 М. 2000, 348. с.; Аммиан Марцелин. Римская история. СПб. 1994. 380 с.; Иордан О происхождении и деяниях готы (Getica), 2- Изд СПб, 1997. 300 с.; Щукин М.Б. Готский путь. – СПб. Филологический факультет. СПб. 54, 2005. 517 с.; Херви Вольфрам. Готы. СПб., Ювента, 2003. 656 с.; Новая история искусства. Искусство Раннего Средневековья. - СПб, Азбука, 2000. 384 с.; Галкина Е.С. Степные наследники Великого переселения народов. Н, 2007. 23-25.; Жирмунский В.М. История немецкого языка. М.: ВШ, 1982, 480 с.

Xalqlar buyuk ko'chishining ishtirokchilari so'zlashgan tillar haqida ayrim ma'lumotlarni biz A.Ya.Gurevich, I.F.Kolesniskiy, Ditrix Klaudiilarning asarlarida uchratamiz.<sup>11</sup>

Xalqlar buyuk ko'chishi davomida alohida rol o'ynagan tarixiy shaxslar haqida biz S.D.Men, M.Adji, L.Gumilev, P.V.Shuvalov, I.Vuna, P.Wolfram kabi olimlarning asarlardan ma'lumot topamiz.<sup>12</sup>

Xalqlar buyuk ko'chishi davridagi turkiy xalqlarining geografik joylashuvi, ishtiroki haqidagi ayrim ma'lumotlarni biz A.A.Baskakov; L.S.Gumilev, A.I.Neusixin; S.V.Shkunayev; Yu.K.Kolosovskaya; I.S.Piorolar tomonidan yaratilgan manbalarda ko'rishimiz mumkin.<sup>13</sup>

Xalqlar buyuk ko'chishida asosiy elementlardan biri bo'lgan german tillarida so'zlashuvchi qabila va elatlarining bu jarayondagi roliga ortiqcha yuqori baho berish, ularni "alohida" etnik guruh sifatida baholashga bo'lgan urinishlar haqida biz F. Dahn, Ed.Wietersheim, R. Pallmann, C. Kaufmann, Schmidt, P.Alheim, A.R.Korsunskiy, R.Gyunter, J.Le Gofflarning asarlaridan ma'lumot topishimiz mumkin.<sup>14</sup>

Xalqlar buyuk ko'chishi davridagi Yevropa hududida yashagan turkiy qabilalar va xalqlar haqida yozgan, ammo bu hodisaga aloqadorligi haqida bir so'z ham aytmagan mualliflarni esa biz N.A.Chapligina, Benzing Johannes, E.D.Pulliblenk, G.O. Derfer, D.Koloson, A.F.Gabenlarning ishlarida uchratishimiz mumkin.<sup>15</sup>

---

<sup>11</sup> Гуревич А.Я. Аграрный строй варваров. // История крестьянства в Европе. М., 1985. 320 с.; Колесницкий И.Ф. Этнические общности и политические образования у германцев I-IV вв., СВ, М., 1985, 280 с.; Дитрих Клауди История Вестготов. – СПб. Изд. группа «Евразия», 2002. 288 с.

<sup>12</sup> Мен С.Д. Аттила. М.: Эксмо, 2007, 316 с.; Аджи М. Европа. Тюрки. Великая степь. – М.: Аст. 560 с.; Л Гумилев Л. Этногенез и биосфера земли, М. АСТ, 2007. 770 с.; Шуvalov П.В. У истоков средневековья. Двор Аттилы. // Двор и придворная культура в историческом аспекте. СПб, 1997, 380 с.; Вуна I. Das Hunnereich. Stuttgart, 1991. 340 с.; Wolfram P. Das Reich und die Germanen / zwischen Antike und Mittel alies Berlin. 1990. 320 p.

<sup>13</sup> Баскаков Н.А. Введение в тюркскую филологию. М., 1969. 384 с.; Гумилев Л.Н. Тысячелетие вокруг Каспия. М., 2007, 448 с.; Шкунаев С.В. Германские племена и союзы племен. – В кн.: История Европы, М., 1988, Т.1. Сс. 594-605.; Колосовская Ю.К., Шкунаев С.В. Кельты в Европе в первой половине тысячелетия до н.э. – В кн.: История Европы.М.: Наука, Т.1. Сс. 203-211, Кельты в Западной Европе в V-I в до н.э. – В кн.: История Европы, М. 1988, Т1. Сс. 492-504; Словарь античности. – М.:Изд. "Прогресс", 1989. 724 с.; Колосовская Ю.К., Шгаерман М. Передвижения племен и падение Западной Римской империи. – В кн.: История Европы. Том – I. Древняя Европа. – М.: Наука, 1988. 704 с.

<sup>14</sup> Dahn F. Die Könige der Germanen, Bd. 1-9, 1986-1990; Wietersheim Ed. Geschichte der Völkerwanderung, Bd. I-II. 1980-81; Pallman P.R. Die Geschihte der Völkerwanderung von der Gothenbewehrung bis zum. Alerichs, 1963; Kaufmanm C. Deutsche Geschichte bis auf Karl den Grossen. – 1980-1981; Schmidt J. die Verwandtschafts verhältnisse der Indogermanischen sprachen. Weimar, 1972; Aftheim F. Hausig. H.W. Die Hunnen in Osteuropa, Baden – baden, 1958; Гюнтер Р. Упадок и гибель Западной Римской империи и возникновение германских королевств (до середины VI в.). М., 1984. 410 с.; Ле Гофф Ж. Цивилизация средневекового Запада. М., 1992, 364 с.

<sup>15</sup> Чаплыгина Н.А. Население Днестро-Карпатских земель и Рим в I-начале III века. Кишинев. 1990. 240 с.; Benzing J. Das Hunnische. Donauebulgarrische und Wolgabulgarische. (sprachrest) – Ph. F.T. 1, 1959. С. 685-695) – Зарубежная Тюркология, Вып. 1. Древние тюркские языки и литературы. - Изд. Наука, М. 1986. Сс. 11-28.; Пуллибленк Э.Д. Язык сюнну – Зарубежная тюркология. Вып. I, Изд.: Наука, М., 1986. Сс. 71-134.; Дерфер Г. О языке гуннов. - Зарубежная Тюркология, Вып. 1. Древние тюркские языки и литературы. - Изд. Наука, М. 1986. Сс. 71-134.; Колосон Д.Т. Происхождение тюркского «рунического письма» - Зарубежная тюркология, Вып. 1. – М.: Наука, 1986, с. 135-158.; Габен А.Ф. Культура письма и печатания у древних тюрков. – Зарубежная тюркология. – Вып 1, Изд.: Наука, М., 1986, с. 158-190.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "German tillari strukturasi, semantikasi va funksional jihatlarining sinxron va diaxron planda tadqiq qilish" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Xalqlar Buyuk ko'chishi natijasida qadimgi german tillari bazaviy strukturalari asosida ingliz tilining shakllanishi va unda qadimgi turkiy tillari bilan bo'lgan kontaktlarning ta'siri va rolini aniqlash, shu orqali tilshunoslikda tarixiylik tamoyilining amal qilish qonuniyatlarini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

tilshunoslikda tarixiylik tamoyilining hozirgi zamon tilshunoslik maktablari va namoyandalari tomonidan talqin qilish masalasini tahlil qilish;

german tillari va aynan ingliz tilining shakllanishida til kontaktlarining o'rni va ahamiyatini tadqiq qilish;

Xalqlar buyuk ko'chishining german tillari fonetik, grammatik strukturalari va lug'at boyligining taraqqiyotiga ko'rsatgan ta'sirini tahlil qilish;

german va turkiy tillarida so'zlashuvchi qabila va elatlar o'rtasidagi kontaktlarning tillar strukturasi ko'rsatgan ta'sir ko'lami va tabiatini tahlil qilish;

Xalqlar buyuk ko'chishining Yevropa tillariga ko'rsatgan ta'sirining funksional-semantik, sotsiolingvistik, areal va dialektologik jihatlarini tizimli tahlil qilish.

**Tadqiqotning obykti** sifatida Xalqlar buyuk ko'chishida ishtirok etgan german va turkiy xalqlar tillari tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** Xalqlar buyuk ko'chishiga jalb etilgan german va turkiy xalqlarning tillarida sodir bo'lgan lingvistik o'zgarishlar, ularning ekstralingvistik va intralingvistik sabablari va oqibatlari hamda tilshunoslikda tarixiylik tamoyilining lingvogenetik tadqiqotlarda qo'llash imkoniyatlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, chog'ishtirma-tipologik, qiyosiy-tarixiy, statistik-distributiv, sotsiolingvistik, tekstologik tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

german tillarining o'ziga xos xususiyatlari sanalgan undoshlarning birinchi ko'chishi; undoshlarning ikkinchi ko'chishi; rotasizm, urg'uning birinchi bo'g'inga ko'chishi, undoshlarning geminasiyasi, qisqa unlilarning cho'zilishi va cho'ziq unlilarning diftonglashuvi xalqlarning buyuk ko'chishi davrida turkiy tillar ta'sirida sodir bo'lganligi asoslangan;

xalqlar buyuk ko'chishining Evropa lingvistik xaritasining shakllanishiga ta'siri - avvallari katta mavqega ega bo'lgan tillar va til guruhlarini o'z lingvistik makonlarini yo'qotganligi va cheklangan hududlarda so'zlashadigan til yoki shevaga aylanib qolganligi, german tillaridan foydalanish ko'laminin keskin kengaygani va roman tillarining lug'at tarkibining boyishiga qaratilgan aspektlarda namoyon bo'lganligi aniqlangan;

german tillari tarixida sodir bo'lgan ko'plab o'zgarishlar: so'z oxiridagi bo'g'inlarning kuchsizlanishi (reduksiya), reduksiya holati bilan bog'liq umlaut xodisasi; so'z boshida til orqa unlilardan avval kelgan j va ju fonemalari talaffuzda tushib qolishi; infinitiv oxiridagi -n ning tushib qolishi, undoshlardagi assimilyasion o'zgarishlar, fe'l turlanish tizimining soddalashishi, bir qator yangi olmoshlarning paydo bo'lishi xalqlar buyuk ko'chishi natijasida sodir bo'lganligi dalillangan;

hozirgi zamon tilshunoslik maktablari va yo'nalishi namoyandalari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda tarixiylik tamoyilining asosiy qonuniyatlari ko'p hollarda izchil qo'llanilmaganligi, angllar, saksonlar, yut va frizlarning V asrda Britaniya orollariga ko'chib o'tishi sabablarini ochib berish orqali hozirgacha amalda bo'lgan izohlarning tarixiy xaqiqatga mos kelmasligi, faktlarni talqin qilishda tarixchilarning o'z mafkurasi talablariga tayangani ochib berilgan;

ilk bor Evropa va Osiyo fanining tegishli sohalarda uchraydigan turkiy qavmlar etnonimlari va ularga aloqador bo'lgan joy nomlarini lingvogenetik jihatdan asoslash orqali turkiy tillardan kirib kelgan turli semantik ko'lamga mansub bo'lgan so'zlarning asliyatga xos bo'lgan ilmiy-etimologik xususiyatlari ochib berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

lingvogenetik izlanishlar chegarasi bir til oilasidan chiqarilib ikki til oilasiga kengaytirildi va ikki til oilasi o'rtasida Yevropa sivilizatsiyasining dastlabki davrlarida bo'lgan kontaktlar va bu kontaktlarning tegishli hamda aloqador tillar strukturasi barcha qatlamlarida qoldirgan izlari ochib berildi. Bu esa, o'z navbatida, german tillari va turkiy tillar tarixini yoritishda nazariy asos bo'lib xizmat qilishi va o'tmishda yaratilgan va hozirgi kunda yaratilayotgan turli "nazariya"larga ilmiy jihatdan asoslangan adolatli baho berish imkonini bergan;

hind-yevropa tillarida so'zlashuvchi xalqlar, shu jumladan, german tillarida so'zlashuvchi xalqlar tarixi o'rganilgan; german tillari, xususan, ingliz tili lug'at tarkibidagi ayrim shakl va so'zlarning ma'no ko'lamini hozirgi ingliz tili yoki german tillari leksikoni yoki hind-yevropa tillari lug'at tarkibi qonuniyatlari bilan izohlab bo'lmaydigan hollar bu turdagi leksik birliklarning turkiy elementlar ekanligi, ular bir yarim ming yil ilgari Xalqlar buyuk ko'chish davrida german tillari lug'at tarkibiga qabul qilinganligi nazariy jihatdan asoslab berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqotning ilmiy bazasi tasniflash, chog'ishtirma-tipologik, qiyosiy-tarixiy, statistik-distributiv, sotsiolingvistik, tekstologik tahlil, lingvistik ehtimollikni aniqlash usullari qo'llanilgani, qo'yilgan masalalarning dolzarbligi, hal qilinayotgan vazifalarning aniqligi, shuningdek, amalga oshirilgan tadqiqot natijalarining dissertatsiya nazariy asoslariga mosligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiya natijalari, xususan, german tillarining shakllanishi va rivojlanishiga qadimgi turkiy tillar ijobiy ta'sir ko'rsatganligi nazariyasi, turkiy tillardan german tillariga o'zlashtirilgan til hodisalari: rotatsizm, runik yozuv, urg'uning ko'chishi, so'z morfologik strukturasi sodir bo'lgan

o'zgarishlar va ko'plab boshqa o'zgarishlarning german tillari guruhiga mansub tillar, ayniqsa, ingliz, nemis, friz, golland tillarining hind-yevropa tillarida mavjud bo'lmagan ayrim belgilarni aynan turkiy tillardan o'zlashtirilganligi nazariy jihatdan asoslab berilgan va shu bilan germanistikaga, ya'ni german tillarini o'rganishning rivojiga muayyan darajada hissa qo'shilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati xulosalar va tadqiqot materiallaridan universitetlarning o'quv jarayonida "O'rganilayotgan til filologiyasiga kirish", "O'rganilayotgan til tarixi", "Nazariy fonetika", "Nazariy grammatika", "Leksikologiya", "Qiyosiy tipologiya" fanlari bo'yicha ma'ruza va seminarlar, maxsus kurslarni ishlab chiqishda, tashkil etishda, dissertatsiyalar, monografiyalar, darslik va o'quv qo'llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinganligi.** Xalqlar Buyuk ko'chishi natijasida qadimgi german tillari bazaviy strukturalari asosida ingliz tilining shakllanishi va unda qadimgi turkiy tillari bilan bo'lgan kontaktlarning ta'siri va rolini lingvogenetik jihatdan tadqiq qilish, shu orqali tilshunoslikda tarixiylik tamoyilining amal qilish qonuniyatlarini ochib berish bo'yicha olingan ilmiy natijalar va amaliy tavsiyalar asosida:

german tillarining o'ziga xos xususiyatlari sanalgan undoshlarning birinchi ko'chishi; undoshlarning ikkinchi ko'chishi; rotasizm, urg'uning birinchi bo'g'inga ko'chishi, undoshlarning geminasiyasi, qisqa unlilarning cho'zilishi va cho'ziq unlilarning diftonglashuvi xalqlarning buyuk ko'chishi davrida turkiy tillar ta'sirida sodir bo'lganligiga oid materiallardan Bakalavriat bosqichi talabalari uchun mo'ljallangan German filologiyasiga kirish fanidan yaratilgan darslikni (The History of the English Language. Sharq Nashr Matbaa konserni, 2010 yil. -154 bet) tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 26 fevral 2009 yil №1 buyrug'i; Guvohnoma № 017). Natijada german tillari guruhiga mansub tillarning aniq miqdori, tarqalish geografiasini, funksional qo'llanish ko'lami haqidagi ma'lumotlar talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish uchun zarur bilimni olishga imkon yaratilgan;

german tillarining o'ziga xos xususiyatlari sanalgan undoshlarning birinchi ko'chishi, german tillari tarixida sodir bo'lgan ko'plab o'zgarishlar; xalqlar buyuk ko'chishining Evropa lingvistik xaritasining shakllanishigaga oid ma'lumotlar va ilmiy xulosalaridan O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2012-2016 yillarda amalga oshirilgan FA-F1-G003 «Hozirgi qoraqalpoq tilida funksional so'z yasalishi» fundamental ilmiy loyihasini bajarishda (O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq Gumanitar Fanlar Ilmiy-tadqiqot institutining 2022 yilning 3 fevraldagi №43/1-son ma'lumotnomasi) foydalanilgan. Natijada rotasizm, urguning birinchi bo'g'inga ko'chishi, undoshlarning geminasiyasi, qisqa unlilarning cho'zilishi va cho'ziq unlilarning diftonglashuvi xalqlarning buyuk ko'chishi davrida turkiy tillar ta'sirida sodir bo'lganligini hamda so'z oxiridagi bo'g'inlarning kuchsizlanishi (reduksiya), infinitiv oxiridagi -n ning tushib qolishi, undoshlardagi assimilyasion o'zgarishlar, fe'l turlanish tizimining soddalashishi, bir qator yangi olmoshlarning

paydo bo'lishi xalqlar buyuk ko'chishi natijasida sodir bo'lganligini o'rganish jarayonida ilmiy manbalarni boyitishga xizmat qilgan;

german tillari tarixida sodir bo'lgan ko'plab o'zgarishlar: so'z oxiridagi bo'g'inlarning kuchsizlanishi (reduksiya), reduksiya holati bilan bog'liq umlaut xodisasi; so'z boshida til orqa unlilardan avval kelgan j va ju fonemalari talaffuzda tushib qolishi; infinitiv oxiridagi –n ning tushib qolishi, undoshlardagi assimilyasion o'zgarishlar, fe'l turlanish tizimining soddalashishi, bir qator yangi olmoshlarning paydo bo'lishi xalqlar buyuk ko'chishi natijasida sodir bo'lganligiga oid ilmiy xulosalaridan O'zbekiston Respublikasi innovasion rivojlanish vazirligining 2020-2022 yillarda o'tkazilgan "Erudit" shifrlı yopiq innovasion loyihasi doirasida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi mudofaa vazirligi O'zbekiston Respublikasi Axborot-kommunikasiya texnologiyalari va aloqa harbiy institutining 2022 yil 3 martdagi 10/400-sonli ma'lumotnomasi). Natijada mazkur xulosalar loyiha doirasida dasturlar tuzishda hamda (izohli) o'quv lug'atini yaratishda keng xizmat qilgan;

hozirgi zamon tilshunoslik maktablari va yo'nalishi namoyandalari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda tarixiylik tamoyilining asosiy qonuniyatlari ko'p hollarda izchil qo'llanilmaganligi, angllar, saksonlar, yut va frizlarning V asrda Britaniya orollariga ko'chib o'tishi sabablarini ochib berish orqali hozirgacha amalda bo'lgan izohlarning tarixiy xaqiqatga mos kelmasligi, faktlarni talqin qilishda tarixchilarning o'z mafkurasi talablariga oid ilmiy xulosalaridan Qo'qon davlat pedagogika institutida bajarilgan 574097-EPP-1-2016-1-CY-EPPKA2-CBHE-JP raqamli "RUECVET – Rossiya va O'zbekistondagi milliy o'rta-umumiy va kasbiy ta'lim tizimlarida Evropa sinov (kredit) tizimini (ESVET) ta'limning tegishli bo'g'inlarida sinovdan o'tkazish" (2016-2019)" nomli xalqaro loyihada foydalanilgan (Muqimiy nomidagi Qo'qon davlat pedagogika institutining 2022 yilning 7 fevraldagi 25-sonli ma'lumotnomasi). Natijada ilmiy manbalarni boyitishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 13 ta, shu jumladan, 6 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy amaliy anjumanlarida, aprobatsiyadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 55 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 54 ta maqola, (shu jumladan 16 tasi xorijiy jurnallarda) nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Umumiy hajmi 243 bet.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqotning joriylanishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumot berilgan.

Dissertatsiyaning "**Tarixiylik tamoyili va uning hozirgi zamon tilshunosligidagi talqini**" deb nomlangan birinchi bobida dissertatsiyada muhokama va tahlil qilinadigan qonuniyat, hodisalarning hozirgi zamon tilshunosligidagi o'rganilganlik holati, masalaning mohiyati, uni o'rganish uchun qilingan harakatlar, yaratilgan nuqtayi nazar, ilgari surilgan g'oya va qarashlar izchil ravishda tahlil qilingan. Bu narsani bajarish ketma-ketlikda amalga oshirilgan bo'lib, unda german tillari tarixini o'rganishning hozirgi kundagi holati, Xalqlar buyuk ko'chishi va uning hozirgi kundagi tarix, tilshunoslikdagi talqini, unga nisbatan ilgari surilgan g'oyalar, Xalqlar Buyuk ko'chishining eng faol ishtirokchilari bo'lgan gunnlarning tili haqidagi masalaning hozirgi zamon tilshunosligidagi tahlili o'z ifodasini topgan.

Ma'lumki, tilshunoslikda tarixiylik tamoyilini qay yo'sinda, qaysi hajmda, qaysi o'rinda va qaysi til obyektlarini tahlil qilishda qo'llash kerak va uning qanday chegaralari bor? kabi savollarga qay tarzda javob berishiga qarab tilshunoslar turli yo'nalishlarga bo'linadi. Bu masala XX asr davomida Ferdinand de Sossyur tomonidan ilgari surilgan sinxroniya va diaxroniya dixotomiyasi doirasida ko'p marta muhokama qilindi va ularda turlicha fikrlar bildirildi. Ish hatto shu darajaga yetdiki, sinxron tilshunoslik sistemalilik (tizimiylik) tamoyiliga asoslanadi va diaxron tilshunoslik asistema, atomar yondashuvga asoslanadi, deb tushunish hatto ko'zga ko'ringan akademik, professor olimlar darajasidagi tilshunoslarga ham mansub bo'lgandi.

Faqat 60-yillarda keyingina tilshunos olimlar diaxron tilshunoslikka ham sistemaviy (tizimli) yondashuv xosligini va bu narsa til ustida olib boriladigan tadqiqotning ilmiy bo'lishini ta'minlaydigan yagona kriteriya ekanligini ko'rsatib qo'ydi.

Tilshunoslikda tarixiylik tamoyili tizimiy xarakterga ega bo'lmasa, u bir-biriga bog'lanmagan turli tarixiy voqea-hodisalarning xronologik jadvalidan farqi bo'lmaydi, mos ravishda ilmiy jihatdan hech qanday qimmatga ega hisoblanmaydi. Tarixiy voqea hodisalar o'rtasida sabab-oqibat munosabatlarini topa bilish, ularni tahlil qilish haqiqiy ilmiy tadqiqotning birinchi qadamidir. Tarixiylik tamoyili bu tarixni bilish emas, balki tilning hozirgi holatini uning tarixi orqali bilishni anglatadi.

So'zlovchilar o'zlarining tillarida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni sezmaydilar. Har yili yuzlab so'z muomalaga kirsa, yana shuncha so'z muomaladan chiqib, passiv lug'at tarkibiga - ballastga aylanib boraveradi. Nominatsiya jarayonining o'zi ham tarixiy tamoyil asosida ish yuritadi. Masalan, so'zlarning ma'nosi vaqti-vaqti bilan o'zgarib, yangi ma'nolar paydo bo'ladi, eski ma'nolari o'lib boraveradi. Bu sinxroniya ichidagi diaxroniyadir. Bu esa tilning mohiyat e'tibori bilan, biz bilgandan ko'ra murakkabroq mohiyat ekanligidan dalolat beradi. "Tilning tarixini bilmay turib uning kelajagini bilib bo'lmaydi".<sup>16</sup>

German tillari guruhi jahon tilshunosligida eng ko'p o'rganilgan til guruhlaridan hisoblanadi. Agar til guruhi juda ko'p o'rganilgan bo'lsa, unda

---

<sup>16</sup> Абаев В.И. Об историзме в описательном языкознании. – в Кн.: "О соотношении синхронного анализа и исторического изучения языков." М., Изд. АН СССР, 1960. 240 с. – сс.64-70

ochilmagan muammolar qolmaganday tuyulishi mumkin. Ammo amalda unday emas. XIX-XX asrlarda qiyosiy-tarixiy tilshunoslar va keyinroq strukturalistlar tomonidan chiqarilgan ko‘plab xulosalar XXI asrga kelganda u yoki bu jihatdan eskirib qoldi va tilshunoslikning istiqboldagi taraqqiyotiga to‘siq bo‘la boshladi. Shuning uchun sistemaviy (tizimli) yondashuv avvalgi ayrim xulosalarni qayta ko‘rib chiqish zaruriyatini keltirib chiqardi.<sup>17</sup>

German tillarining qadimgi paytdagi mavjudlik holati, ularning boshqa til guruh va oilalari bilan kontaktlari masalasi, tarix, arxeologiyaning eng yangi yutuqlari til tarixini o‘rganishga tadbiiq etildi, tilshunoslikdagi ayrim hukmlarning qayta ko‘rib chiqish zaruriyatini paydo qildi.

Gunnlar turkiy tillarda so‘zlovchi xalqlar bo‘lib, ular haqidagi dastlabki yozma manbalar eramizdan avvalgi III asrga tegishlidir. Eramizgacha bo‘lgan I-asrda gunnlar G‘arbgga ko‘chishini boshladi va 300 yil o‘tgach, o‘zlariga ko‘plab qabilalarni biriktirgan holda, gunnlar qabila ittifoqini tuzib, Markaziy Yevropa hududlarigacha yetib keldi. Bu narsa Yevropada III-VIII asrlarda sodir bo‘lgan Xalqlar buyuk ko‘chishining boshlanganligidan darak berardi.

Gunnlar tili haqida Sharqiy va Markaziy Yevropa, Oltoy, Shimoliy Xitoy, Sharqiy Turkiston va boshqa hududlarda topilgan yozma yodgorliklarda saqlanib qolgan otlar, elementar matnlar va ayrim ikki tilli glossalar berilgan bo‘lib, ularni o‘rganish gunnlar tili haqida ma‘lumot beradi.

Quyida biz tilshunoslikda tarixiylik tamoyilini ko‘plab tadqiqot olib borishda tilshunoslar tomonidan yo‘l qo‘yilayotgan asosiy xato va kamchiliklar haqida gapirib o‘tamiz.

1. Tilshunoslikda tarixiylik tamoyilini qo‘llashning nazariy asoslarini egallamaganlik holati boshlovchi tilshunos olimlar ishlarida ko‘p yo‘l qo‘yiladigan xatolar sirasiga kiradi. Masalan: D. Aytmuratov, R.G.Axmetyanov.

2. Izlanish obyekti yetarli darajada o‘rganilmasdan turib, juda yirik va salmoqli xulosalar chiqarish amaliyoti tilshunoslar ishlarida ko‘p ko‘zga tashlanadigan kamchiliklardan hisoblanadi. (I. Benzig, G. Dyorfer)

3. O‘rganilayotgan til tarixi faktlariga apriorizm nuqtayi nazaridan yondashish va oqibatda noto‘g‘ri hukmlarni tadqiqot uchun dastlabki nazariy asos sifatida qabul qilish (E. Pulliblenk, G.Dyorfer, M.Isayev, V.Miller).

4. Tillar tarixiy taraqqiyotining turli davr yoki faktlarini tahlil qilishda yoki yakuniy xulosa chiqarishda mantiqiy qarama-qarshiliklar mavjud (Dj. Kloson, I.Bensig, G.M. Vasilevich, Ye.M. Zalqind, R.G.Axmetyanov).

5. Turli davrlar faktlarini izchil berishda voqea-hodisalar, tarixiy jarayonlar umumiy ketma-ketligini buzish, zamonda lokalizatsiya qilish jaryoniga noto‘g‘ri yondashish eng keng tarqalgan kamchiliklardan hisoblanadi (U.Sulaymonov, M.Adji, D.Aytmuratov, N.Ya. Marr).

6. Izlanish obyektida uchramaydigan belgini berish orqali tadqiqotning ilmiy jihatdan asoslanganlik darajasini pasaytirish. (V.I.Abayev, M. Adji, M.K. Palo, Dj.Mey).

---

<sup>17</sup> Левин В.Д. 106-107 бб.

7. Keyingi paytlarda etnogenetik tadqiqotlarda ko‘p uchraydigan holat bu dunyoviy va diniy bilimlarni aralashtirib yuborish bo‘lib, unga ko‘ra tadqiqotchida chinakam ilmiy tahlil uchun material yoki nazariy asos yetishmay qolsa, darhol Injil yoki Qur‘onga murojaat qiladi va u yerdan najot topishga harakat qiladi. (U.Turon.)

V.F. Gumboldt fikrini rivojlantirib, taniqli olim A.Sodiqov yozganidek, “Til insoniyat jamiyatining tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratgan barcha tarixiy boyluklarini mujassamlashtirgan va avloddan avlodga o‘tib boradigan konkret tarixiy normadir”.

Tillarni tahlil qilishda tarixiylik tamoyilini qo‘llash va uning ahamiyati, zaruriyati, hozirgi holati va yo‘lga qo‘yilayotgan kamchiliklarning tahlili shu narsani xulosa sifatida aytish imkonini beradi. Ular quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1) tillarni tahlil qilishda tarixiylik tamoyilini qo‘llash mantiqiylik tamoyili kabi katta ahamiyatga ega bo‘lib, lingvogenetik tahlil orqali tillar taraqqiyotining asosiy qonuniyatlari, bosqichlari va ayrim tafsilotlarini bilish imkonini beradi;

2) tarixiylik tamoyilini qo‘llash ilmiy jihatdan chuqur nazariy baza, tegishli metod va proseduralarni izchil amalga oshirish, yetarli til materialini tahlil qilgandagina oldiga qo‘ygan vazifani bajara oladi;

3) tarixiylik tamoyilini qo‘llash turli tilshunoslar o‘zlariga tegishli bo‘lgan maktab, yo‘nalish hamda tendensiyalar doirasida bo‘lishi tabiiy holatdir va tilshunoslik tarixi bu fikrni tasdiqlab turibdi;

4) keyingi 15-20 yil ichida tarixiylik tamoyilini o‘z talqinida, vulgarchasiga tushunish, tarixiy faktlar tahlilini o‘z qiziqishlariga bo‘ysundirgan holda olib borish kontsepsiyasiga u qadar to‘g‘ri kelmaydigan faktlardan ko‘z yumish, anaxronizm (zamon chegaralarini buzish) va axronizm (tarixni butunlay inkor qilish) tendensiyalari ham paydo bo‘ldiki, ularga chuqur ilmiy tahlil asosida to‘g‘ri baho berish hozirgi paytda lingvogenetik tahlil bilan shug‘ullanadigan olim va mutaxassislarning birinchi darajali vazifasidir.

Tilshunoslar tomonidan e‘tirof etilganidek, “Tilshunoslik tarix fani bilan bog‘liqdir. Til qabila hamda millat tarixi bilan chambarchas bo‘lgani uchun insoniyat jamiyatining tarixi tilda bevosita o‘z mavqeyini topadi”.<sup>18</sup>

Dissertatsiyaning "**German tillarining shakllanishida til kontaktlarining roli, o‘rni va ahamiyati**" deb nomlangan ikkinchi bobida asosiy e‘tibor eramizning boshlarida Evropada hukm surgan etnosotsiolingvistik sharoit va unda kuzatilgan til kontaktlarining tabiati va asosiy yo‘nalishlari haqida gap borgan. Katta e‘tibor qadimgi german va turkiy qabilalari tillari o‘rtasidagi kontaktlarning tabiati, tilning turli qatlamlarida, ya‘ni fonetik struktura, grammatika va lug‘at tarkibida mana shu buyuk ko‘chish natijasida paydo bo‘lgan va rivojlangan innovatsiyalarga qaratilgan. Bundan tashqari, ikkinchi bobda qadimgi german va qadimga turkiy xalqlar o‘rtasidagi kontaktlarning qadimgi german manbalarida yoritilishi ham o‘rganib chiqilgan. Bobning oxirgi paragrafida esa qadimgi turkiy xalqlar tomonidan birinchi ming yillikda qo‘llanilgan yozuv tizimlari o‘rtasidagi

<sup>18</sup> Sodiqov A.S. Tilshunoslik fanining predmeti. – Umumiy tilshunoslik. M., 1979. 10 b.

munosabatlar o'rganib chiqilgan hamda qaysi til guruhi tomonidan bu alifbo avvalroq ishlatilgan va kim, qachon, qayerda bu alifboni o'ziga qabul qilib olgan degan masalalar muhokama qilingan.

Hind-yevropa tillari oilasining eng keng tarqalgan til guruhlaridan bo'lgan german tillari o'z funksional ko'lamining kengayib borishi bilan strukturaviy jihatdan ham rivojlanib bordi. Qadimgi davrdagi german tillari rivojlangan sintetizmga asoslangan flektiv tillar edi. Boshqa grammatik srukturaga ega bo'lgan tillar bilan uzoq davom etgan kontaktlar natijasida german tillari grammatik strukturasi soddalashuv jarayoni rivojlana bordi. Ayrim tillarda otlarning kelishik tizimi parchalandi, fe'llar turlanishi ham soddalashdi. Ayrim german tillarida esa sintetizm asta-sekin analitizmga joy bo'shatib bera boshladi.

Yuqorida aytilgan til kontaktlari qadimgi german va qadimgi turkiy tillari davrida boshlandi va bu narsa har ikki til guruhi vakillarining tilida katta o'zgarishlarning sodir bo'lishiga olib keldiki, bu o'zgarishlar hind-yevropa tillar oilasining boshqa guruhlariga mansub tillarda kuzatilmadi. Bu holat ham tillarda sodir bo'lgan o'zgarishlarning ana shu kontaktlar bilan izohlanishini asoslaydi.

Qadimgi german tillarida urg'u erkin bo'lgan va u so'zning har qanday bo'g'iniga tushavergan. Keyinchalik urg'u birinchi bo'g'inga muqim bo'lib ko'chdi. Bu narsaga sabab deb Xalqlar buyuk ko'chishi natijasida germanlarning turkiy qabilalar bilan kontaktga kirishishini ko'rsatamiz. Bunday deyishga asos shuki, turkiy tillar german tillar bilan kontaktga kirishganda unda birinchi bo'g'inda muhim dinamik urg'u mavjud edi. German xalqlariga birinchi bo'g'indagi dinamik urg'u turkiylar german tillarini qabul qilib, ona tilidek so'zlashib yurgan paytlarda sodir bo'ldi. Turkiylar o'z urg'usini german tillariga ko'chirdi va german tillaridan erkin urg'u esa german xalqlarining turkiy tillarni qabul qilib, unda so'zlasha boshlagan paytda sodir bo'ldi.

Qadimgi german va turkiy qabilalar orasidagi kontaktlar Yevropada sodir bo'lganligi uchun Yevropada yozilgan manbalarda ular o'z aksini topgan. O'rta asrlarda Skandinaviya va Markaziy Yevropada yozilgan manbalarda german va turkiy xalqlar o'rtasidagi aloqaning juda intensiv bo'lganligidan darak berar va germanlar o'zlarini Osiyodan chiqqanligini hamda qadimgi turkiylarga yaqin qarindosh ekanligini ta'kidlashgan.

Qadimgi germanlar va qadimgi turkiylar runik yozuvdan foydalangan ikki xalq bo'lib, ulardan boshqa hech qaysi xalq runik yozuvdan foydalanmagan. To'g'ri, keyingi paytlarda slavyan runalari haqida ham yozishmoqda, ammo bular yetarli asosga ega emas.

Shunday ekan, tabiiy savol tug'iladi, kim kimdan o'rgangan? Germanlar turkiylardanmi yoki turkiylar germanlardanmi?

Xalqning yosh yoki qadimiyligini hisobga olsak, bu narsa qadimgi turkiylarga tegishli bo'ladi. Chunki eramizdan avvalgi III asrga oid turkiy tillarda (xun tilida) yozilgan yozma yodgorliklar runik yozuvda amalga oshirilgan. German runalari esa nisbatan yoshroq. Ular eramizning II-III asrlariga tegishli. Xuddi mana shu davrda germanlarning turkiylar bilan uchrashuvi sodir bo'lganligini inobatga olsak, o'z-o'zidan yechim topiladi.

Qit'ada qolgan germanlar, ayniqsa, nemislar Xalqlar buyuk ko'chishining katta qozonida eng ko'p qaynagan xalqlar bo'lgani uchun, aynan nemis tilida yuqoridagi kabi xususiyatlar qabul qilingan va rivojlangan. "u"dan oldin "w"ning paydo bo'lishi ham, mas: *u:n>wu:n>wun>wAn; ulfila>wulfila* turkiy tillarda ham kuzatiladigan hodisalar *un>bun, o:t>wo:t* [o't>vo't].

Xalqlar buyuk ko'chishining Yevropa tillari strukturasi ko'rsatgan ta'sirining sotsiolingvistik, areal va dialektologik jihatlarining tizimiy tahlili bizga quyidagilarni aytishga imkon beradi.

Ingliz tilining shakllanishi boshqa har qanday german tillari yoki boshqa Hind-Yevropa tillari kabi va, umuman, boshqa oila vakillari bo'lgan tillar shakllanishi kabi uzoq muddatli jarayon bo'lib, u o'z ichiga turli katta-kichik, ichki-tashqi, davomli-bir zumli kabi xarakterdagi omillarning doimiy ta'siri ostida bu tilda so'zlashuvchi odamlar individual va jamoaviy psixologiyasi, intellektual va kulturologik saviyasi, sotsiolingvistik vaziyatlar talablariga muntazam, izchil ravishda javob berish va, kezi kelganda, ularga mos ravishda katta-kichik o'zgarishlarni amalga oshirish natijasida muayyan bir til makonida kechdi.

Tillar tarixini o'rganish shu tilda so'zlashadigan xalq tarixini o'rganishdir. O'z navbatida, xalq tarixini o'rganish uchun uning tarixini o'rganish kerak. Ammo bu yerda absolyut mos tushish hech qachon kuzatilmaydi. Bir tilda asrlar o'tishi bilan turli etnoslar, milliy, diniy, o'rni kelsa, irqiy jihatdan turlicha odamlar gaplashgan bo'lishi va, aksincha, bir xalq, (etnos, millat) o'z tarixi davomida turli oilaga mansub bo'lgan tillarda so'zlashgan bo'lishi ham mumkin. Shularni inobatga olgan holda, etnogenetik tadqiqotlarda arxeologik yodgorliklar, moddiy madaniyat namunalari qanchalik rol o'ynasa, lingvistik material ham shunchalik rol o'ynaydi. Ba'zi jihatlari bilan balki ko'proq rol o'ynashi ham mumkin.

Xalqlar o'rtasidagi kontaktlar tillar o'rtasidagi kontaktlarni taqozo etadi. Xalqlar o'tasidagi kontaktlar dinlar, konfessiyalar, mazhablar o'rtasidagi kontaktlarni taqozo etadi. Bu narsa o'tmishda ham muhim bo'lib kelgan bo'lsa, hozirda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Diniy omil tillar tarixida ayrim holatlarda shevalarni bir tilga birlashtiruvchi faktor sifatida namoyon bo'lsa, ba'zi paytlarda yonma-yon joylashgan hududlar (qishloq, shahar yoki graflik) aholisi dini, mazhabi turlicha bo'lganligi uchun, turli tillarni tanlab, shu tillar pirovardida o'sha xalqning etnik umumiyligini bildiruvchi omillarga aylanib qolganligi ham sir emas.

Xalqlarning buyuk ko'chishi Yevropaning etnik va lingvistik xaritasini tubdan o'zgartirib yubordi. Butun Yevropada muloqot tili bo'lgan kelt tillari asta-sekin o'z pozitsiyalarini yo'qota borib, oxir oqibatda Britaniya orollarining chekka hududlaridagina saqlanib qoldi. Rim imperiyasining tili bo'lgan lotin tili ham o'z pozitsiyalarini yo'qota borib, oxiri bir necha milliy tillarga parchalanib ketdi.

Vizantiyaning tili bo'lgan grek tili sharqiy Yevropada ayrim pozitsiyalarini saqlab qolgan bo'lsa-da, avvalgi shon-u shuhrati, ko'lamini saqlab qola olmadi.

German qabilasi bo'lgan franklar o'z tilini yo'qotib, roman tilini qabul qildi. Mamlakatga o'z nomini bergan bo'lsa-da, o'zga xalq tilini o'ziga oldi. Germanlar hukmronlik qiladigan franklar yeri endi rimliklarning avlodlariga tegishli hududga aylandi.

Xalqlar buyuk ko'chishida Yevropa lingvistik xaritasini ajralmas qismi bo'lib turkiy tillar sahnaga chiqdi. Turkiy tillar V - IX asrlarda Markaziy Yevropa: Pannoniya, Dakiya, Janubiy Germaniya, Boltiq bo'yi hududlarida asosiy muloqot tili bo'lib xizmat qildi.

Xalqlar buyuk ko'chishining yana bir natijalaridan biri Markaziy Yevropaga ugor-fin oilasi vakili bo'lmish venger tilining kirib kelishidir. Venger tili X asrning o'rtalarida Markaziy Yevropaga kelib o'troqlashgan bo'lsa-da, u yerda ulargacha yashagan aholi gunnar tilining ta'siriga uchradi va bu turkiy substrat venger tili fonetikasi, grammatik qurilishini shu qadar o'zgartirib yubordiki, venger tili o'zining oilasidagi ko'plab tillarga mutlaqo o'xshamay qoldi.

Xalqlar buyuk ko'chishi jarayoniga jalb etilgan yana bir etnik butunlik bu slavyan xalqlari bo'lib, ular Xalqlarning buyuk ko'chishining eng faol komponentlaridan bo'lib, sanaladi. u Sharqiy Yevropa: Qora dengiz bo'ylari, Gretsiya, Bolqon yarim orolidagi etnik va lingvistik taraqqiyotning kelajagini belgilashda katta rol o'ynaydi.

Dissertatsiyaning **“Xalqlar buyuk ko'chishining german tillari fonetik, grammatik strukturalari va lug'at boyligi taraqqiyotiga ta'siri”** deb nomlangan uchinchi bobida german va roman tillarining shakllanishida Xalqlar buyuk ko'chishining o'rni va roli, izlari haqida gap boradi. Unda Yevropa qit'asidagi Xalqlar buyuk ko'chishi natijasida sodir bo'lgan o'zgarishlarning sotsiolingvistik tabiati yoritiladi. Bu o'zgarishlar doirasida g'arbiy german tillari fonologiyasida kuzatiladigan tovush ko'chishlari, german tillari lug'at tarkibini boyitishda xizmat qilgan innovatsiyalar va ularning sodir bo'lishida mavjud bo'lgan sotsiolingvistik fon, qadimgi german tillaridan roman tillariga kirib kelgan toponim va antroponimlar xarakterlab beriladi.

Bundan tashqari, bu bobda qadimgi german va roman tillari so'z yasash mexanizmlari o'rtasidagi aloqadorlik tabiati ham tahlil qilinadi.

Germanlar tomonidan zabt etilgan, bosib olingan va asrlar davomida hukmronlik qilingan barcha hududlarda siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy va madaniy sohalarida tushkunlik, parchalanish va turg'unlik hukm surdi. Rim imperiyasining qulashi lotin tilining o'lishiga sabab bo'ldi. Ammo bu holat bir qancha yangi tillarning paydo bo'lishiga olib keldi.

781-yil Italiyaga bostirib kirganidan yetti yil keyin Buyuk Karl Rimda o'z o'g'li Karlomanni Pipin ismi bilan Italiyaning qiroli deb e'lon qildi. Qirollik fuqarosi endi rimliklar deb atalmas, balki italyanlar deb atalar, mustaqil xalq sifatida jahon arenasiga chiqqan va Rim imperiyasida yashagan gallialiklar hamda iberiyaliklar ham endi rimlik degan nomni tashlab, fransuz va ispan degan xalqqa aylandi.

German tillari Fransiya, Ispaniya, Italiyadagi boshqa roman tillarida so'zlashuvchi hududlarda til sifatida unutildi, muomaladan chiqdi, ammo u tillarning elementlari fonetik, leksik birliklari paydo bo'lgan va rivojlanayotgan tillar strukturasidan muhim joy egalladiki, endi ularni keyingi qirollarning istak-xohishi tildan quvib chiqara olmasdi.

Xalqlar buyuk ko'chishi natijasida yuzaga kelgan tillar kontakti german va turkiy tillari fonetik strukturasida ayrim o'zgarishlarga olib keldi. Bularga sabab

turkiylarning vaqti kelib o‘z tillarini unutib, german tillarini qabul qilishi va germanlarning, o‘z navbatida, turkiy tillarni qabul qilishi oqibatida o‘zga tillarni eski artikulyatsion bazada talaffuz qilishi har ikkala til fonetik strukturasi sezilarli ta‘sir qildi. Tillarda assimilyativ o‘zgarishlar, unilar cho‘zilishi, tovushlarning tushib qolishi, tovushlarning paydo bo‘lishi kabi hodisalar sodir bo‘ldi.

Xalqlar buyuk ko‘chishi oqibatida sodir bo‘lgan til kontaktlari roman tillariga german tillaridan ko‘plab so‘zlarining, shu jumladan, antroponim va toponimlarning kirib kelishiga olib keldi. Bundan tashqari, german tillari so‘z yasash mexanizmlari roman tillariga kirib keldi va produktiv modellar sifatida ko‘plab yangi so‘zlarning yasalishiga sabab bo‘ldi hamda shu yo‘l bilan roman tillari lug‘at tarkibini boyitishga katta hissa qo‘shdi.

### 1-jadval

#### Semantik dubletlarning funksional va lingvokulturologik jihatlari

I ustun	II ustun
<b>Lotin yoki grek tilidan kirib kelgan yoki rivojlangan so‘zlar</b>	<b>German tillaridan kirib kelgan so‘zlar</b>
<i>amante</i> – (sevgan yor, salbiy bo‘yoq yo‘q)	<i>drudo</i> – o‘ynash (salbiy bo‘yoq bor)
<i>ballo</i> (raqs)	<i>tresca, ridda</i> (qishloqilar raqsi)
<i>bagnarsi</i> (cho‘milmoq)	<i>sguzzare, diguzzare</i> (Loyda yumalamoq, balchiqqa bulanmoq)
<i>bello</i> – (chiroyli)	<i>laido</i> (bedavo, xunuk)
<i>ben fatto</i> (kelishgan)	<i>sbilenco</i> (bir yonga qiyshiq)
<i>bere</i> (ichmoq)	<i>trincare, lappare</i> (piyonistalik qilmoq)
<i>canzonare</i> (kulmoq)	<i>schernire</i> (ustidan kulmoq)
<i>capigliatura</i> (sochlar)	<i>zazzera</i> – yo‘l (qasmoq sochlar)
<i>carezzare</i> – (erkalamoq)	<i>graffiare sgraffi are, sgraffignare</i> – (tirnalmoq) <i>schiaffo, schiaffeggi are</i> – (tarsakilamoq)
<i>cavallo</i> – (ot)	<i>marrone</i> (ayg‘ir, o‘laksa ot)
<i>ceco</i> – (ko‘r)	<i>guercio</i> (g‘ilay)
<i>con grazia</i> (mehribonlarcha)	<i>con garbo</i> (nafis)
<i>dente</i> (tish)	<i>brame</i> (ilikish)
<i>desiderio</i> (istak)	<i>bramire</i> (itday o‘lmoq)
<i>diritto</i> (to‘g‘ri)	<i>sghembo, sghim bescio</i> (g‘ilay)
<i>dolore</i> (og‘riq)	<i>affanno</i> – (qiyin nafas olish, bo‘g‘ilish, qiynalish)
<i>dormire</i> (uhlamoq)	<i>russare, sornacare</i> (hurrak otmoq).
<i>ebrieta, ebbrezza, ubriacatura</i> (mast bo‘lish)	<i>sbronza</i> (bosh og‘riq qilish, itday ichish)

Bularning hammasi o‘sha davr ijtimoiy-siyosiy vaziyati juda keskin, o‘tkir va beqaror bo‘lganligidan dalolat beradi.

## 2-jadval

### Boshqa tillardan german tillariga qabul qilingan til birliklari – innovatsiyalarning tilda naturallashuv (me‘yorlashuv) bosqichlari

Bosqichlar	Tilda avvaldan mavjud bo‘lgan shakl – A	Innovatsion element - B
<b>1-bosqich</b>	Muayyan grammatik yoki leksik ma‘noni ifodalovchi, uslubiy jihatdan neytral, ijtimoiy ma‘nosi ijobiy bo‘lgan shakl – til normasining a‘zosi.	B – shakl hali tilda mavjud emas.
<b>2-bosqich</b>	Muayyan grammatik yoki leksik ma‘noni ifodalovchi, uslubiy jihatdan neytral, ijtimoiy ma‘nosi ijobiy bo‘lgan shakl – til normasining a‘zosi.	Til substandart og‘zaki so‘zlashuv nutqida shaklan A ga o‘xshamaydigan, semantik, jihatdan o‘xshash, stilistik jihatdan belgilangan, ijtimoiy ma‘nosi ijobiy bo‘lgan shakl – V paydo bo‘ladi.
<b>3-bosqich</b>	An‘anaviy, birlamchi shakl til normasining teng huquqli a‘zosi sifatida funksional faol til birligi bo‘lib xizmat qilishda davom etadi.	Innovatsiyaga uchragan shakl til normasining teng huquqli a‘zosi bo‘lib tan olinadi. Birlamchi shakl va innovatsiya o‘rtasida stilistik va sotsiolingvistik farqlanish paydo bo‘ladi. Tilda funksional sinonimiya hodisasi rivojlanadi.
<b>4-bosqich</b>	Birlamchi shakl funksional jihatdan qo‘llanilish ko‘lamini toraytiradi va asta-sekin stilistik, sotsiolingvistik jihatdan degradatsiyaga uchraydi va til normasidan chiqib, asta-sekin substandart nutqning elementiga aylanib boradi.	Innovatsiya tilda asosiy vositaga aylanadi, sinonimiya barham topadi.
<b>5-bosqich</b>	Birlamchi shakl tilda o‘z umrini yashab bo‘ladi, bu shakl o‘lib ketadi. Uni hech kim hech qayerda ishlatmaydi. U til tarixiy jarayonning bir faktiga aylanib qoladi.	Innovatsiya muayyan ma‘noni ifodalovchi funksiyani bajaruvchi yagona shakl sifatida unga yuklangan funksional yuklamani to‘laligicha bajarib borishda davom etadi.

Dissertatsiyaning “German va turkiy xalqlari o‘rtasidagi kontaktlarning tillar strukturasi ko‘rsatgan ta‘sirining funksional tahlili” deb atalgan to‘rtinchi bobida german va turkiy tillaridagi o‘zaklar strukturaviy jihatdan tahlil qilinib, ular o‘rtasidagi yaqinlik, o‘xshashlik holatlariga lingvogenetik jihatdan

baho beriladi. Bundan tashqari, bu bobda Yevropa lingvistik xaritasining shakllanishida Xalqlar buyuk ko'chishining omili va uning til turli qatlamlarida zohirlanishi masalalarida keng o'rin berilgan.

German tillari esa o'z foydalanish ko'lamini keskin kengaytirdi shuningdek, tashqari roman tillarining lug'at tarkibini boyitishda juda katta hissa qo'shdi. Natijada minglab german so'zlari fransuz, ispan, italyan va boshqa roman tillariga o'zgargan yoki o'zgarmagan shaklda va ma'noda kirib keldi.

German tillari bilan turkiy tillarning o'zaro aloqalari faqat fonetik va leksik qatlamda emas, balki grammatik ma'noni ifoda etish darajasida ham kuzatildi. Ayrim grammatik formativlar (shakl yasovchi elementlar) turkiy tillardan german tillariga kirib kelgan bo'lsa, aksincha, ayrim formativlar esa turkiy tillarga german tillaridan o'tdi.

Turkiy tillarning o'zi ichida ayrim jarayonlar german tillari ta'sirida boshlandi va keng rivojlanib ketdi. Buning oqibatida qaysi til guruhi birlamchi ekanligini aniqlash, ya'ni innovatsiyaning manbayi qaysi, reseptori qaysi ekanligini aniqlash qiyin bo'lib qoldi. Masalan, rotatsizm, kuchsiz - fe'llarda qo'llaniladigan dental suffiks, ramkali qurilma va hokazolarga "egalik" qiluvchi til guruhini aniqlash ancha mushkul.

XX asr va XXI asr boshlariga kelib xalqlar tarixi, millat, til va ularning tarixi masalasida butunlay yangi qarashlar, nazariyalar yaratildiki, ular hozirgacha mavjud bo'lgan fikrlarga ko'p jihatdan umuman to'g'ri kelmaydi. Bir millat - bir til yoki bir etnonim - bir xalq degan fikrlarning noto'g'ri ekanligi ma'lum bo'ldi. Avvalgi sodda izohlarning mohiyatni u qadar to'g'ri ochib bermasligi ko'rinib qoldi. Masalan, Xitoy avval qabul qilgandek, 3-4 ming yildan beri etnik jihatlardan o'zgarmagan, tashqi ta'sirlardan chetda qolgan etnik butunlik sifatida emas, balki bir necha etnik qatlamlarning ketma-ket izchil almashinuvi natijasida yuzaga kelgan etnik birlik (xalq, millat nomi bu yerda rol o'ynamaydi) namoyon bo'lishi isbotlandi. Katta millatlar: rus, nemis, ingliz, fransuz va boshqalar haqida ham xuddi shu fikrlarni bildirishimiz mumkin. Turkiy xalqlar haqida gapirmasa ham bo'ladi.

Til va millat tushunchalarining o'zaro munosabatlari haqida ham shu fikrlarni bildirishimiz mumkin. Bir tilda bir millat emas, ketma-ket tarixiy izchilikda yashagan bir necha millat (yoki elat, el, qabila, etnos kabi birliklar) gaplashgan yuqoridagi sodda sxemaning noto'g'ri ekanligini bildiradi. German xalqlarining uchinchi ming yillik tarixi ham yuqoridagi tezisni isbotlab turibdi. Nogerma xalqlar: rimliklar, slavyanlar, keltlar va ayrim turkiy xalqlar german tillarini o'z ona tillari sifatida qabul qilishdi va keyinchalik o'zlarining boshqa etnik butunlikdan rivojlangan xalq ekanligini unutib yuborishdi.

Bu yerda asosiy hal qiluvchi omil bo'lib xalqning iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy - madaniy jihatdan g'olib xalqqa bog'liqligi xizmat qiladi. Chunki yangi ijtimoiy tuzum yangicha munosabatlarni va mana shu munosabatlarni yo'lga qo'yishning yangi kodi, vositasini talab qiladi. Bu yangi kod sifatida hukmron millat, qabila yoki xalqning tili xizmat qiladi. Bu til kommunikatsiyani yaxshi amalga oshirsa, oxir oqibatda, bu ikkinchi xalqning ham asosiy yoki ona tilisiga aylanib qoladi. Bu narsa esa kontaktlarning davomiyligiga ham bog'liq. Chunki agar ikki etnos:

hukmron va tobe etnoslar uchun muloqot yetarli darajada uzoq davom etmasa, ya'ni bir avlod umri ichida bo'lsa, tilning funksional ko'lamida hech qanday o'zgarish sodir bo'lmaydi. Agar kontaktlar davomiy 2-3 avlod davriga to'g'ri kelsa, kodning o'zgarishi sodir bo'ladi. Gunlar tilining german va roman tillari ustidan g'olib chiqa olmaganiga har ikki xalqlar o'rtasidagi etno-madaniy saviyaning turlicha bo'lganligi birinchi sabab bo'lsa, ikkinchi sabab esa assimilyatsiya uchun yetarli vaqtning bo'lmaganligidir.

Yevropadagi iqtisodiy, siyosiy, harbiy vaziyatning bir maromda bo'lmaganligi, doimiy urushlar, aholi tarkibining tez o'zgarishi til vaziyatining murakkabligi aholiga gunlar tilini asosiy muloqot tili sifatida qabul qilishiga imkon bermadi.

Xalqlar buyuk ko'chishining Yevropa til vaziyati va german tillariga ko'rsatgan ta'sirini ikki tomonlama ekanligini aytib o'tish mumkin.

1. Ekstralingvistik ta'sir.

2. Intralingvistik ta'sir.

Ekstralingvistik jihatdan Xalqlar buyuk ko'chishi Yevropa tillarining shakllanishida quyidagi ta'sirni ko'rsatdi:

a) qabila tillarining birlashib xalq tillariga aylanishiga olib keldi;

b) siyosiy-harbiy jihatdan dominant qabilalar tillari o'sha xalqlar orasida yetakchi tillarga aylandi;

d) german qabilalari tillarining milliy til sifatida rivojlanishi ularning ko'chish natijasida qaysi hududga borib qolganligiga bog'liq bo'ldi. Agar qabila Xalqlar buyuk ko'chishi natijasida rivojlangan sivilizatsiya va kuchli davlat tuzumiga ega bo'lgan hududlarga borib qolgan bo'lsa, u qabila o'zidan ko'ra rivojlangan madaniyat, urf-odat va tilni qabul qildi. Rim imperiyasi va Galliyaning janubiy-markaziy hududlaridagi german qabilalarining tili roman tillariga o'z pozitsiyalarini berib qo'ydi va german tillarida so'zlashuvchi xalqlar roman tillarini qabul qilshdi.

German tillarida so'zlashuvchilar kontsentratsiyasi, kuchliroq bo'lgan hududlarda esa son va siyosiy-harbiy jihatdan ustun qabila - germanlar o'z tilini saqlab qoldi. (Shimoliy, Markaziy Yevropa) Bu yerlarda german tillari shakllandi.

Xalqlar buyuk ko'chishi natijasida Yevropada etnogeopolitik tanglikning yuzaga kelishi bu yerda shu davrda yashab turgan barcha etnoslarning taqdiriga bevosita va bilvosita ta'sir qildi. Shu jumladan, Yevropa shimolida, Skandinaviya yarim orolida yashab kelgan german qabilalarining hayotiga ham. Populyatsion o'sish natijasida mahalliy geografik hudud normal hayotiy faoliyat uchun muhit yaratib bera olmaganligi sababli, aholining "ortiqcha" qismi janubga - qit'aga migratsiya qilar edi. Skandinaviyadagi germanlar orasida shunday bir qadimiy an'ana hozirgacha bor bo'lib, unga ko'ra, oilada tug'ilgan erkak jins vakillarining eng kattasi ota-onasi bilan birga qoladi, qolganlari esa, u bittami - o'ntami farqi yo'q, boshqa yerga borib, o'zi uchun "vatan" topishi, ya'ni yashash o'rni va faoliyat turi tanlashi kerak bo'ladi. V-VII asrlarda mana shu "ortiqcha" aholi uchun Yevropada joy qolmadi va bu yerda qaynayotgan migratsion jarayonlar ichida ular etnik umumiyligini yo'qotish xavfi tug'ildi. Natijada shimoliy germanlar o'zlari uchun hayotiy makonni janubdan emas, balki sharq yoki g'arbdan qidirishga

majbur bo'ldilar. Sharqqa ketgan germanlar "**varyaglar**" nomi bilan hozirgi Rossiyaning shimoliy hududiga kelib o'r mashgan bo'lsa, g'arbga ketgan germanlar Farer orollari, Islandiya, Grenlandiya va boshqa orollardan makon topdilar. Tarixiy manbalarda yozilishicha, mana shu davrda "**vikings**" lar deb nomlangan bu xalqlar Shimoliy Amerikagacha yetib borganlar. Bizni bu narsa hozir qiziqitirmaydi. Biz aytmoqchi bo'lgan fikr shuki, Shimolda ro'y bergan bu migratsiyaning barcha ishtirokchilari qadimgi norveg tilida yoki bo'lmasa, bu tilning ikkinchi nomi qadimiy shimol tilida (Old Norse) so'zlashar edilar. VI-X asrlarda bu orollarga kelib o'troqlashib, qit'adagi jarayonlardan to'la izolyatsiyada yashagan bu xalqlar tili o'ziga xos taraqqiy etishi natijasida ulardan uchta til norveg tili, island tili, farer tili paydo bo'ldi va rivojlandi.

German tillari va turkiy tillari fonetik strukturlaridagi tovush almashinish qonuniyatlarini biz "turkiy tillarning german tillariga etimologik" ta'siri yoki bo'lmasa, uning aksi "german tillarining turkiy tillariga ko'rsatgan" ta'siri, degan nuqtayi nazardan o'rganib chiqdik. Bu narsa "ayrim o'zgarishlar german tillari turkiy tillar ta'sirida sodir bo'lgan" degan tezisni isbotlash va bu kabi o'zgarishlarning ko'lami va salmog'ini aniqlash maqsadida amalga oshirilgan edi.

Xalqlar buyuk ko'chishi Yevropa tarixida III-VIII asrlarda sodir bo'lgan voqea bo'lib, bu asosiy jarayon yetti subjarayonni o'z ichiga oladi.

a) Yevropa va Osiyo geografiyasida ro'y bergan sezilarli klimatik o'zgarishlar;

b) Yevropa, Shimoliy Afrika va yaqin Sharqda quldorlik tuzumi tanazzulga yuz tutishi kuzatildi;

d) etnik jarayonlardagi rivojlanishning nomutanosibliigi kuzatildi;

e) etnoslararo divergensiya va konvergensiya hodisalari kuchaydi;

f) jamiyatlar iqtisodiy munosabatlari rivojlanishida muayyan siljishlar kuzatildi;

g) aniq bir tendensiyaga aloqador bo'lmagan subjarayonlar bo'lib o'tdi;

h) qabila tillari xalq, elat tiliga rivojlanib, yozuvga ega bo'lgan tillar soni ko'paydi.

Bir tilda mavjud bo'lgan til shakli boshqa yangi element – innovatsiyalar sifatida paydo bo'lishi va adoptatsiya jarayonini boshidan kechiruvda shu narsa kuzatiladiki, yangi hududga odamda innovatsiyaning yakuniy yoki oraliq shakllari ko'chib o'tadi. Yangi elementning yangi hududda assimilyatsiya jarayonining kechishida yangi til birligi bilan eski til birligi o'rtasida kompromiss holati bo'lishi mumkin.

Muayyan bir vaqt mobaynida alohida olingan bir shevada eski va yangi shakllar bir vaqtda mavjud bo'lishi mumkin. Bundan kelib chiqadiki, boshqa turli innovatsiya kabi fonetik innovatsiya ham avval alohida individlar tomonidan qabul qilib olinadi va til jamoasining boshqa barcha a'zolariga tarqatiladi.

Innovatsiyaning tarqalishi alohida so'zlar vositasida amalga oshiriladi. Ular mazkur tovush transformatsiyasi uchun model vazifasini bajaradi. Ammo bunga qaramay, ayrim so'zlar bu o'zgarish, ko'chishga jalb etilmay qolishi mumkin. Bunday holatlar reliktlar deb ataladi.

Innovatsiyalarning til makonida tarqalishining asosiy sababi shuki, bu tilning muayyan bir hududda ijtimoiy-siyosiy jihatdan mavqega ega ekanligi yoki ega emasligidadir.

Innovatsiyalarning bir til jamoasidan ikkinchisiga o'tishining uch bosqichi bor:

1) birinchi bosqichda o'zida innovativ shaklni ifodalagan (tarkibida innovatsiya bo'lgan) alohida olingan, yakka so'zlar bir tildan boshqa tilga qabul qilinadi;

2) ikkinchi bosqichda ayrim so'zlovchilar, yarim ongli ravishda, eski talaffuz shakllarini yangi shakllarga qiyoslagan holda, bu innovatsiyani boshqa so'zlarga, ya'ni leksik tarkibining barchasiga tarqatadi;

3) uchinchi bosqichda esa yangi talaffuz butun til jamoasi tomonidan olinadi va yagona talaffuz normasiga aylanadi.

Tillar dialektlarida mavjud bo'lgan farqlar bu tilda so'zlashuvchi xalq hali boshqa hududlarga ko'chib, tarqab ulgurmay, yagona bir hududda yashayotgan paytidayoq rivojlanish jarayonini boshdan kechirayotgan bo'ladi. Tulkin nazariyasi bu tillar tarixiga to'g'ri nazar tashlashni o'rgatibgina qolmay, balki til differensiyasi asosiy qonun va bosqichlari hamda tillarning qarindoshligini aniqlashga yordam berishi mumkin. Lekin migratsiya nazariyasiga qarama-qarshi o'laroq, tillar qarindoshligini inkor qilmaydi. Hind-yevropa tillari tarixida ko'plab holatlar borki, unga ko'ra, migratsiya (ko'chish) jarayonlari tufayli xalqlar o'z til guruhlarini, hatto til oilalarini ham o'zgartirib yuborgan. Yaqin tarixda kuzatilgan holatlar, ya'ni franklarning romanlashuvi, romanlarning germanlashuvi, germanlarning slavyanlashuviga chexlar; germanlarning romanlashuviga fransuzlar, yahudiylarning turklashuviga karaimlar, turkiylarning eronlashuviga tatlar sababchi bo'lganiga yana ko'plab misollarni keltirish mumkin.

Migratsiya jarayonlarining tildagi differensiyatsiya tendensiyalarini kuchaytirib yuborishida kuzatiladigan yana bir holat borki, biror bir shevada so'zlashadigan xalq u tilda so'zlashuvchi boshqa xalqlardan ajralib, izolyatsiya holatiga tushib qoladi va natijada til orollari paydo bo'ladi.

Tilning izolyatsiyada rivojlangan shakli boshqa, nisbatan qo'shnichilikda, kompakt yashayotgan o'zga sheva yoki tillardan boshqacharoq taraqqiyotni boshidan kechiradi. Ya'ni u konservativroq, atrofidagi tillar ta'sirini o'zida his etgan dialekt yoki til shaklida namoyon bo'ladi. Masalan, ugor-fin oilasining venger tili, turkiy tillardan karaim tili, german tillaridan island tili yoki afrikaans tillarini misol tarzida keltirishimiz mumkin.

Bu innovatsiyalarning har biri aniq bir joyda paydo bo'lib, o'z tarqalish zonalariga ega bo'ladi. Innovatsiyalar tarqalgan joy til ishlatilishi makoniga teng kelishi mumkin. Bunday hollarda shevalararo farqlar paydo bo'lmaydi. Innovatsiyalar tarqalishining ikkinchi yo'li shundaki, u til makonining faqat ayrim bir qismini o'z ichiga olishi mumkin. Bunda shevaga tegishli har bir unurning o'z mavjudlik zonasi, tarqalish chegarasi paydo bo'ladi.

Siyosiy muvozanat xuddi siyosiy destabilizatsiya kabi tilning holati va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Davlat yoki imperiya chegaralarida mavjud bo'lgan

hududlarning siyosiy jihatdan nobarqarorligi til taraqqiyotida salbiy faktor hisoblanadi.

Tilning o'zgarimasligi, nisbatan fiksatsiyalanganligi tilga bilvosita aloqador bo'lgan tashqi omillar ishtiroki natijasi bo'lib chiqishi mumkin. Agar qandaydir bir tashqi omil: urush, bosqin, revolyutsiya, jamiyat hayotidagi turli ijtimoiy fojealar shu davlat hududida yashovchi butun millatga tegishli bo'lsa, u tildagi evolyutsiyani tezlashtiradi, til erkin holatga tushib qoladi va o'z tarixiy ildizlari tomonidan belgilab berilgan yo'ldan davom etadi.

Til oilalari, til guruhlari, tillar va shevalar fonetik strukturalarida innovatsiyalarning qabul qilinishi tabiati, sabab va mexanizmlari har bir oila, guruh yoki alohida til uchun o'ziga xos bo'lishi bilan bir paytda, hammasi uchun xos umumiy belgilar ham bor. Ular birga davrlar, hududlar tillari uchun umumiy va o'xshash bo'ladi. Masalan, eramizning II-III asrlarida Yevropada qadimgi irland tili umum hind-yevropa bobo tilining barcha xususiyatlarini o'zida ifodalagan til sifatida namoyon bo'lsa, 400 yil keyinroq VIII asrda topilgan yozma yodgorliklar tilida esa boshqa barcha Hind-Yevropa tillarida uchramaydigan ko'pgina xususiyatlarni topamiz. Xuddi shu narsani german va roman tillari tarixida ham kuzatishimiz mumkin.

Xalqlar buyuk ko'chishi natijasida Yevropada german tillari va roman tillari alohida milliy til, ya'ni aniq bir etnik birlik uchun aloqa vositasi bo'lgan umumiy til sifatida shakllangan bo'lsa-da, hali bu tillarni normalashgan, ya'ni o'z adabiy yoki talaffuz normalariga ega bo'lgan til deb atab bo'lmasdi.

### 3-jadval

#### German va turkiy tillardagi strukturaviy jihatdan o'xshash o'zaklarning qiyosiy tahlili

№	O'zak modeli	German tillari	Turkiy tillar	Izoh
1	CCVV	27,78 %	77,75 %	
2	CVCC	9,59 %	2,81 %	
3	CV	1,86 %	1,68 %	
4	VVC	8,61 %	-	
5	VCVC	5,87 %	-	
6	VC	4,51 %	12,58 %	
7	CCV	5,01 %	-	
8	CVV	4,59 %	-	
9	CVCV	-	2,13 %	
10	V (V)	0,98 %	-0,56 %	
11	VCC	2,45 %	1,46 %	
12	VCV	2,25 %	1,01 %	

Albatta, german va turkiy o'zaklar orasidagi strukturaviy o'xshashlik, ya'ni ayrim modellarning har ikkala til guruhiga ham ko'p uchraydigan modeli bo'lishi yoki ayrim modellarning juda kam uchrashi bu o'rinda ko'p ahamiyatga ega bo'lmaydi, chunki xuddi shu turdagi strukturalarning borligi tillar uchun universal xarakterda bo'lishi mumkin. Tillar o'rtasidagi farq mana shu strukturadagi o'zaklarning qaysi tovushlar bilan ifodalanganligidandir. Bu yerda esa farq juda

katta. Til guruhlari orasida tilshunoslar tomonidan aytiladigan mos tushish miqdori juda kam. Bu miqdor, 0,1%ga ham teng kelmasligi mumkin. Bu esa qarindosh bo'lmagan tillar guruhlar haqida gap ketganda oddiy narsadir. Chunki bir xil tovush bilan ifodalangan o'zaklar turli til guruhlarida turlicha ma'no bildiradi, bu narsa o'zaklarning butunlay boshqa manbalarda rivojlanganligidan dalolat beradi.

Bundan shu narsani xulosa qilib aytish mumkinki, Xalqlar buyuk ko'chishi natijasida Yevropada vujudga kelgan german tillari o'z fonetik, grammatik strukturalari va lug'at tarkibiga ega bo'lgan tillar bo'lsa-da, ular hali uslubiy pragmatik, sotsiolingvistik va boshqa jihatlardan ancha rivojlanmagan, aniqrog'i, rivojlanishning dastlabki bosqichida turgan milliy tillar sanaladi. Bu esa adabiy norma haqida gapirishga hali bir oz erta ekanligini ko'rsatadi.

## XULOSA

Xalqlar buyuk ko'chishining german tillari shakllanishidagi roli yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijalari bizga quyidagilarni umumiy xulosa sifatida qayd etishga imkon beradi:

1. XX asr oxiri va XXI asr boshlariga kelib xalqlar tarixi, millat, til va ularning tarixi masalasida butunlay yangi qarashlar, nazariyalar yaratildiki, ular hozirgacha mavjud bo'lgan fikrlarga ko'p jihatdan umuman to'g'ri kelmaydi. Bir millat – bir til yoki bir etnonim – bir xalq degan fikrlarning noto'g'ri ekanligi ma'lum bo'ldi. Avvalgi sodda izohlar mohiyatni u qadar to'g'ri ochib bermasligi ko'rinib qoldi. Masalan, Xitoy avval qabul qilgandek, 3-4 ming yildan beri etnik jihatlarning o'zgarmagan tashqi ta'sirlardan chetda qolgan etnik butunlik sifatida, balki bir necha etnik qatlamlarning ketma-ket izchil almashinuvi natijasida yuzaga kelgan etnik birlik (xalq, millat nomi bu yerda rol o'ynamaydi) namoyon bo'lishi isbotlandi.

2. Til va millat tushunchalarining o'zaro munosabatlari haqida ham shu fikrlarni bildirishimiz mumkin. Bir tilda bir millat emas, ketma-ket tarixiy izchilikda yashagan bir necha millat (yoki elat, el, qabila, etnos kabi birliklar) so'zlashgan yuqoridagi sodda sxemaning noto'g'ri ekanligini bildiradi. German xalqlarining uch ming yillik tarixi ham yuqoridagi tezisni isbotlab turibdi. Nogerman xalqlar: rimliklar, slavyanlar, keltlar va ayrim turkiy xalqlar german tillarini o'z ona tillari sifatida qabul qilishdi va keyinchalik o'zlarining boshqa etnik butunlikdan rivojlangan xalq ekanligini unutib yubordilar.

3. Xalqning iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy-madaniy jihatdan g'olib xalqqa bog'liqligi bu yerda asosiy hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Chunki yangi ijtimoiy tuzum yangicha munosabatlarni, mana shu munosabatlarni yo'lga qo'yishning yangi kodi, vositasini talab qiladi va bu yangi kod sifatida hukmron millat, qabila yoki xalqning tili xizmat qiladi. Bu til kommunikatsiyasini yaxshi amalga oshirsa, oxir oqibatda, bu ikkinchi xalqning ham asosiy yoki ona tiliga aylanib qoladi. Bu narsa esa bu kontaktlarning davomiyligiga ham bog'liq. Chunki agar ikki etnos hukmron va tobe etnoslar uchun muloqot yetarli darajada uzoq davom etmasa, ya'ni bir avlod umri ichida bo'lsa, tilning funksional ko'lamida hech qanday o'zgarish sodir bo'lmaydi. Agar kontaktlar davomiy 2-3 avlod

davriga to'g'ri kelsa, kodning o'zgarishi sodir bo'ladi. Gunnlar tilining german va roman tillari ustidan g'olib chiqa olmaganiga har ikki xalqlar o'rtasidagi etno-madaniy saviyaning turlicha bo'lganligi birinchi sabab bo'lsa, ikkinchi sabab esa assimiliyatsiya uchun yetarli vaqtning bo'lmaganligidir.

4. Yevropadagi iqtisodiy, siyosiy, harbiy vaziyatning bir maromda bo'lmaganligi, doimiy urushlar, aholi tarkibining tez-tez o'zgarishi, til vaziyatining murakkabligi aholiga gunnar tilini asosiy muloqot tili sifatida qabul qilishga imkon bermadi.

Ekstralingvistik jihatdan Xalqlar buyuk ko'chishi Yevropa tillarining shakllanishida quyidagi ta'sirni ko'rsatdi.

a) qabila tillarining birlashib xalq tillariga aylanishiga olib keldi;

b) siyosiy harbiy jihatdan dominant qabilalar tillari o'sha xalqlar orasida yetakchi tillarga aylandi;

d) german qabilalari tillarining milliy tillarga rivojlanishi ularning ko'chish natijasida qaysi hududga borib qolganligiga bog'liq bo'ldi. Agar qabila Xalqlar buyuk ko'chishi natijasida rivojlangan sivilizatsiya va kuchli davlat tuzumiga ega bo'lgan hududlarga borib qolgan bo'lsa, u qabila o'zidan ko'ra rivojlangan madaniyat, urf-odat va tilni qabul qildi. Rim imperiyasi va Galliyaning janubiy, markaziy hududlaridagi german qabilalarining tili roman tillariga o'z pozitsiyalarini berib qo'ydi va german tillarida so'zlashuvchi xalqlar roman tillarini qabul qildi.

5. German tillarida so'zlashuvchilar konsentratsiyasi kuchliroq bo'lgan hududlarda esa son va siyosiy harbiy jihatdan ustun qabila-germanlar o'z tilini saqlab qoldi. (Shimoliy, Markaziy Yevropa) Bu yerlarda german tillari shakllandi.

a) tilda bo'ladigan o'zgarishlar eng avval individning psixologiyasida tushuncha tarzida shakllanishi va keyinchalik mana shu individ tegishli bo'lgan jamoaning umumiy psixologiyasiga tegishli tasavvur, tushuncha va ongning bir qismiga aylanishi tamoyili;

b) so'zlovchi nutqiy faoliyatini risolada bo'lishini belgilaydigan psixik va jismoniy omillarning o'zaro munosabati tilni taraqqiy ettiruvchi omil ekanligi tamoyili;

d) innovatsiya tarzida o'zga tildan kirib kelgan so'z referentsial ma'nosidagi psixik assosiasiyalarning asosiy assosiasiyalarga aylanish tamoyili;

e) tilni haqiqiy ilmiy o'rganishning faqatgina uni tarixini o'rganish orqali amalga oshirish tamoyili;

f) til unsurlarining moddiy borliq bilan analogiyasi mavjudligining majburiylik tamoyili;

g) til elementlarining zamon va makonda uzluksiz o'zgarishi va farqlanish tamoyili;

h) til elementlarida rivojlanadigan ayrim farqlarning bir-biridan mustaqil yuz berish tamoyili;

i) jonli tillarning turli dialektlarda innovatsiya sifatida qabul qilingan til elementlarining tarqalishi asta sekin sodir bo'ladigan hodisa ekanligi tamoyili;

j) so'zlovchi yoki tinglovchida mavjud bo'lgan sezgidagi motorikaning o'zgarishi tilda sodir bo'ladigan o'zgarishlarning asosiy omili ekanligi tamoyili.

k) innovatsiya sifatida boshqa tildan kirib kelgan soʻz talaffuzining qulaylashtirish tamoyili;

l) tilda mavjud boʻlgan soʻz okkazional maʼnosi uzual maʼnoning barcha elementlarini toʻlaligicha qabul qila olmay qolganda okkazional maʼnoning cheklanishi tamoyili;

m) innovatsiya sifatida oʻzga tildan kirib kelgan soʻz maʼnosining oʻzgarishi sezilmas koʻchishlarga asoslanishi tamoyili;

n) innovatsiya sifatida oʻzga tildan qabul qilingan soʻz referentsial maʼnosining kognitiv-kontekstual mazmuni soʻzlovchi individning madaniy jihatdan rivojlanganlik darajasiga bogʻliqligi tamoyili;

o) psixologik va grammatik kategoriyalar oʻrtasidagi birlamchi garmoniyaning vaqtlar oʻtishi bilan qayta tiklanish uchun kurashi tamoyili.

Tillar dialektlarida mavjud boʻlgan farqlar bu tilda soʻzlashuvchi xalq hali boshqa hududlarga koʻchib, tarqab ulgurmay, yagona bir hududda yashayotgan paytidayoq rivojlanish jarayonini boshdan kechirayotgan boʻladi. Toʻlqin nazariyasi bu tillar tarixiga toʻgʻri nazar tashlashni oʻrgatibgina qolmay, balki til differensiyatsiyasi asosiy qonun va bosqichlari hamda tillarning qarindoshligini aniqlashga yordam berish mumkin. Lekin migratsiya nazariyasiga qarama-qarshi oʻlaroq, tillar qarindoshligini inkor qilmaydi. Hind-yevropa tillari tarixida koʻplab holatlar borki, unga koʻra migratsiya (koʻchish) jarayonlari tufayli, xalqlar oʻz til guruhlarini, hatto til oilalarini ham oʻzgartirib yuborgan. Yaqin tarixda kuzatilgan holatlar, yaʼni franklarning romanlashuviga, romanlarning germanlashuviga, germanlarning slavyanlashuviga cheklar; germanlarning romanlashuviga fransuzlar, yahudiylarning turklashuviga karaimlar, turkiylarning eroniydashuviga tatlar sababchi boʻlganiga oidkoʻplab misollarni keltirish mumkin.

Migratsiya jarayonlarining tildagi differensiyatsiya jarayonlarini kuchaytirib yuborishida kuzatiladigan yana bir holat borki, biror bir shevada soʻzlashadigan xalq u tilda soʻzlashuvchi boshqa xalqlardan ajralib, izolyatsiya holatiga tushib qoladi va natijada til orollari paydo boʻladi.

Tilning izolyatsiyada rivojlangan shakli boshqa, nisbatan qoʻshnichilikda, kompakt yashayotgan oʻzga sheva yoki tillardan boshqacharoq taraqqiyotni boshidan kechiradi. Yaʼni u konservativroq, atrofidagi tillar taʼsirini oʻzida his etgan dialekt yoki til shaklida namoyon boʻladi. Masalan, rus tilining lujich (polab) dialekti, ugor-fin oilasining venger tili, turkiy tillardan karaim tili, german tillaridan island tili yoki afrikaans tillarini misol tarzida keltirishimiz mumkin.

Tillarda sodir boʻladigan oʻzgarishlarda vaqtning, falsafiy kategoriya boʻlmish zamonning ahamiyati kattadir. Falsafiy qonunda aytilganidek, har qanday voqea-hodisa (bu oʻrinda tildagi oʻzgarish) muayyan bir makon va zamonda sodir boʻladi. Shunday ekan, tilshunoslarning tilda roʻy bergan oʻzgarishlarning qachon sodir boʻlganini aniqlash, bilish shunchaki oddiy bir qiziqish boʻlmay, bu narsa oʻrganilayotgan masalaning mohiyatini ochib beruvchi bir muhim holat boʻlishi mumkin.

Yevropada Xalqlar buyuk koʻchishidan keyin milliy tillarning paydo boʻlishi va rivojlanishida etnik birlik va til oʻrtasida muayyan munosabatlar paydo boʻlishi kuzatildi. Jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar umumxalq tilini yaratishga boʻlgan

urinish - harakatini paydo qiladi va bu tilda shevalardan yuqori turadigan umumiy belgilar paydo bo'ladi. O'z navbatida, tilning umumiyliги etnik butunlikni yaralishiga olib keladi. Bu narsa tildagi yaqinlikning tabiatini izohlashning yagona, eng to'g'ri yo'lidir. Masalan, o'rta asrlarning boshlarida Yevropa roman etnizmi mavjud edi. Bu roman etnizmi yagona siyosiy-adminstrativ aloqalar yo'q bo'lgan taqdirda ham kelib chiqishi etnik jihatdan turli oila va guruhlarga tegishli bo'lgan xalqlarni birlashtira oldi.

Boshqa tomondan, etnik birlik haqida guvohlik beruvchi asosiy omil bu til bo'lib, uning bergan guvohligi madaniyat, din, turmush tarzi, urf-odat, hududiy birlikdan ko'ra ishonchliroq va hal qiluvchi omil bo'ladi. Bu munosabatda muayyan chegaralarda til tarixiy hujjat vazifasini bajarishi mumkin. Hind-yevropa tillarining bir oilani tashkil etishi qachonlardir birlamchi etnizmni tashkil qilgan, hozirda mavjud tillar uzviylik tamoyili asosida o'sha tillarda so'zlashuvchi xalqlar shu etnik butunlikka xos bo'lgan belgilarning ko'pligini o'ziga singdirgan bo'ladi.

Siyosiy muvozanat xuddi siyosiy destabilizatsiya kabi tilning holati va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Davlat yoki imperiya chegaralarida mavjud bo'lgan hududlarning siyosiy jihatdan nobarqarorligi til taraqqiyotida salbiy faktor hisoblanadi.

Tilning o'zgarmasligi, nisbatan fiksatsiyalanganligi tilga bilvosita aloqador bo'lgan tashqi omillar ishtiroki natijasi bo'lib chiqishi mumkin. Agar qandaydir bir tashqi omil: urush, bosqin, revolyutsiya, jamiyat hayotidagi turli ijtimoiy fojialar shu davlat hududida yashovchi butun millatga tegishli bo'lsa, u tildagi evolyutsiyani tezlashtiradi, til erkin holatga tushib qoladi va o'z tarixiy ildizlari tomonidan belgilab berilgan yo'ldan davom etadi.

Xalqlar buyuk ko'chishi natijasida Yevropada german tillari va roman tillari alohida milliy til, ya'ni aniq bir etnik birlik uchun aloqa vositasi bo'lgan umumiy til sifatida shakllangan bo'lsa-da, hali bu tillarni normalashgan, ya'ni o'z adabiy yoki talaffuz normalariga ega bo'lgan til deb atab bo'lmasdi. Chunki ularda hali adabiy til normasining mavjudligini ko'rsatuvchi birlamchi va ikkilamchi belgilarning ko'pchiligi yo'q edi. Aniqrog'i, G'arbiy, Markaziy va Shimoliy Yevropada shakllangan german tillari hali to'laligicha rivojlanib bo'lmagan edi.

Bundan shu narsani xulosa qilib aytish mumkinki, Xalqlar buyuk ko'chishi natijasida Yevropada vujudga kelgan german tillari o'z fonetik, grammatik strukturalari va lug'at tarkibiga ega bo'lgan tillar bo'lsa-da, ular hali uslubiy pragmatik, sotsiolingvistik va boshqa jihatlardan rivojlanmagan, aniqrog'i, o'sishning dastlabki bosqichida turgan milliy tillar edi. Bu o'z-o'zidan adabiy norma haqida gapirishga hali biroz erta ekanligini ko'rsatadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01  
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УЗБЕКСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ МИРОВЫХ ЯЗЫКОВ**

---

**УЗБЕКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ МИРОВЫХ  
ЯЗЫКОВ**

**КУЛДАШЕВ АКРАМЖОН МАХМУДОВИЧ**

**РОЛЬ ВЕЛИКОГО ПЕРЕСЕЛЕНИЯ НАРОДОВ В ФОРМИРОВАНИИ  
ГЕРМАНСКИХ ЯЗЫКОВ**

**10.00.06 - Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание и  
переводоведение**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ  
ДОКТОРА НАУК (DSc) ПО ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Ташкент – 2023**

Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии под номером B2017.1.DSc/Fil42.

Диссертация выполнена в Узбекском государственном университете мировых языков.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета по адресу ([www.uzswlu.uz](http://www.uzswlu.uz)), и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу ([www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)).

**Официальные оппоненты:**

**Хайруллаев Хуршиджон Зайниевич**  
доктор филологических наук, профессор

**Джумабаева Жамила Шариповна**  
доктор филологических наук, профессор

**Гадоева Мавлюда Ибрагимовна**  
доктор филологических наук, профессор

**Ведущая организация:**

**Ташкентский государственный университет  
узбекского языка и литературы**

Защита диссертации состоится «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2023 года в \_\_\_\_\_ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01 по присуждению ученых степеней при Узбекском государственном университете мировых языков (Адрес: 100138, г. Ташкент, Учтепинский район, улица Кичик халка йули, 21А. Тел: (99871)230-12-91); факс (99871)230-12-92; e-mail: [uzswlu\\_info@mail.ru](mailto:uzswlu_info@mail.ru)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Узбекского государственного университета мировых языков (зарегистрирована за №\_\_\_) (Адрес: 100138, г. Ташкент, Учтепинский район, улица Кичик халка йули, 21а. Тел: (99871)230-12-91); факс (99871)230-12-92; e-mail: [uzswlu\\_info@mail.ru](mailto:uzswlu_info@mail.ru)).

Автореферат диссертации разослан «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2023 года.  
(Реестр протокола рассылки №\_\_\_ от «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2023 года).

**Г.Х. Бакиева**

Председатель научного совета по  
присуждению учёных степеней,  
д.филол.н., профессор

**Х.Б. Самигова**

Ученый секретарь научного совета по  
присуждению учёных степеней,  
д.филол.н., доцент

**Ж.А. Якубов**

Председатель научного семинара при  
научном совете по присуждению  
учёных степеней, д.филол.н.,  
профессор

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской (DSc) диссертации)

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Великие достижения конца XX — начала XXI веков во всех областях мировой лингвистики, кардинальные изменения политической карты мира, новые фактические материалы по многим вопросам, связанным с историей языков народов, определили необходимость пересмотра некоторых положений истории языков.

Идея о том, что открытие исторической истины в мировой лингвистике сегодня является конечной целью науки об истории языка, нашла отражение в недавних публикациях и выступлениях на различных уровнях в Евразии и Америке. В связи с этим в научных кругах ведущих учебных заведений возникла необходимость пересмотра периодов истории германских и тюркских языков, самой распространенной в мире индоевропейской языковой семьи, дать правильную интерпретацию различных «белых пятен» принадлежащих к тем периодам. Важно отметить, что историки XX века обнаружили, что на ранних этапах взаимодействия с древними тюркскими народами разного характера и длительности, произошло влияние этих языковых контактов на фонетическую, грамматическую структуру и словарный запас языков, принадлежащих как к языковым семьям, так и к группам.

Центральное место в узбекском языкознании занимает изучение многих проблем и вопросов, связанных с определением места гуннского языка в истории европейских языков, особенно германских, но до сих пор не решенных. Особое внимание уделяется «развитию фундаментальных, прикладных и инновационных исследований, сохранению существующих научных школ и созданию новых, укреплению их кадрового потенциала при одновременном поощрении широкого привлечения в науку талантливых людей». Это, в свою очередь, привело к изучению самых ранних периодов истории германских языков, и разработке основных принципов исторического развития языков путем выявления причин последующих изменений в этих языках или некоторых аспектах исторического развития романских, славянских и кельтских языков народов, проживающих на сопредельных территориях, до сих пор остававшихся малоизученными, определяют актуальность исследований, направленных на последовательное выявление влияния Великого переселения народов на формирование и развитие германских языков.

Данное диссертационное исследование основано на Указе Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № ПУ-60 «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы»; ПУ-4947 от 7 февраля 2017 года «О стратегии дальнейшего развития Республики Узбекистан»; 21 октября 2019 г. «О мерах по коренному повышению престижа и статуса узбекского языка как государственного»; Постановление № ПП-6084 от 20 октября 2020 года «О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в нашей стране»; Постановление №

